

MUNDARIJA

Kirish	3
Birinchi bob. Tilshunoslikda antonimiya hodisasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari	
1.1. Antonim leksik birlik sifatida	7
1.2. Antonimlarning hosil bo‘lishiga ko‘ra turlari	12
1.3. Tarjimada antonimlarning variantdoshligi.....	16
I bob bo‘yicha xulosa	21
Ikkinchi bob. Italyan tilida antonimlarning yasalishi va qo‘llanishi	
2.1. Italyan tilida “antonim” tushunchasining qamrovi xususida	22
2.2. Antonimlar tasviriy ifoda vositasi sifatida.....	28
2.3. Antonimlarda badiiy bo‘yoqdorlikning farqlanishi	33
II bob bo‘yicha xulosa.....	40
Uchinchi bob. Italyan va o‘zbek tillarida antonimiya hodisasining o‘zaro farqli va o‘xshash jihatlari	
3.1. O‘zbek tilida antonimlarning klassifikatsiyasi	42
3.2. O‘zbek va italyan tillarida antonimlarning umumiy va xususiy tahlili ...	47
III bob bo‘yicha xulosa	52
Xulosa.....	53
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	58

Kirish

So'nggi yillarda fan va ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratilishi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy sohalarda ma'suliyatli vazifalarni qo'ydi. Bunday vazifalardan biri chet tillarni o'rganish va o'rgatishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning ta'biri bilan aytganda, "Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir".¹ Mustaqil yurtimiz O'zbekistonda vatanimiz ravnaqi, gullab yashnashi, talaba yoshlarning har tomonlama bilim olishlari, ularning bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, chet tillarni o'rgatish va jahon hamjamiyati bilan davomiy aloqada bo'lishga hukumatimiz tomonidan katta ahamiyat berib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston va Italia davlatlari o'rtasida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar rivoji uchun italyan tilini O'zbekistonda o'rgatish 1999- yildan yo'lga qo'yildi. Bunday murakkab vazifani muvaffaqiyatli ado etish uchun esa dastavval kuchli mutaxassislar zarurligi ta'kidlandi. Zero, yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ta'kidlaganlaridek, "shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"². Sharq dunyosida azaldan ilm fanga juda katta e'tibor berib kelingan va ilmni o'rgatuvchi kishininig ma'suliyati juda katta hisoblangan . Zero, "ilmga amal va rioya qiluvchi bo'linglar, uni faqat hikoya qiluvchi bo'lmanglar"— deyiladi hadislarda. Shunday ekan yetishib chiqayotgan yosh kadrlarni zamon talablariga mos ravishda ta'lim berish katta ma'suliyat, bilim va g'ayrat yana yaxshi mutaxassis talab qiladi. Darhaqiqat, xorijiy tillarni jumladan, italyan tilini har tomonlama chuqur o'rganish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri bo'lmog'i lozim. Shunday ekan, biz ham ushbu bitiruv

¹ Karimov I.A. *Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori* . - Toshkent: O'zbekiston, 1998.-B. 8.

² Mirkomilov B. O'ralova O. *Muhammadiyev.P. Ma'naviy tiklanish va o'zlikni anglash* .- Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2010.-B.

malakaviy ishimizda aynan italyan tilini chuqur o'rganishga yordam bo'ladigan o'zbek talabalari italyan tilini o'rganishlarida asosiy vosita hisoblanadigan o'quv qo'llanma tuzilishi va unda leksikologiyaning ahamiyati, tilning structural, funksional, semantik xususiyatlarini yoritib berishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizdagi ta'limga bo'lgan e'tibor va munosabat mahsuli sifatida, ta'lim olayotgan barcha o'quvchi va talabalar uchun til o'rganish va tilshunoslik bilimlarini o'zlashtirish kadrlar tayyorlash dasturining oldida turgan eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Talabalarning mukammal tilshunos kadr bo'lib yetishishlari va o'z faoliyatlarini amalga oshirishlari uchun tilning barcha bo'limlari va kichik obyektlarini o'rganishlari va tadqiq qilishlari shart. Hozirgi zamonaviy va rivojlangan texnologiyalar asrida yoshlarning chet tillarini o'rganishlari ta'lim va tarbiyaning rivojlanishida muhim ta'sir o'tkazmoqda. Chet tillaridan biri italyan tilining kichik birligi bo'lmish "antonimlar" va "antonimiya" hodisasini o'rganish italyan tilini o'zlashtirishdagi eng muhim masalalardan biridir. Italyan tilining so'zlashuv amaliyoti va badiiy adabiyotida antonimlarning qo'llanilishi tilning badiiy bo'yoqdorligi, yaxlit va tushunarli tarzda hosil bo'lishining asosi hisoblanadi.

Malakaviy ishning asosiy maqsadi. Ushbu malakaviy ishning oldida turgan asosiy maqsadi italyan tilining muhim o'rganish obyektlaridan biri bo'lmish "antonim" va "antonimiya" hodisasini o'rganish, uning ishlatilishi, o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish hamda talqin qilishdan iborat.

Malakaviy ishning asosiy vazifalari. Tadqiq qilinayotgan bitiruv malakaviy ishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat :

- italyan tilida antonimlarning hosil bo'lishi va uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;
- antonimlarning leksik xususiyatlarini ;
- so'zlashuv uslubida qo'llanilishi ;
- badiiy uslubda qo'llanilishi ;
- tarjimashunoslikda antonimlarning tutgan o'rnini ;

- tillar o'rtasida antonimlarning o'zaro bog'liqlik xususiyatlarini o'rganib chiqish.

Malakaviy ishning predmeti va obyekti. Italyan tilshunosligining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan leksikologiya bo'limi tadqiq qilinayotgan ishning obyekti hisoblansa, leksikologiyaning eng muhim o'rganish obyektlaridan biri bo'lmish antonimiya hodisasi tadqiq qilinayotgan ishning subyekti sanaladi.

Malakaviy ishning nazariy ahamiyati. Antonimlarning sistem talqinidagi laksik birliklarning semantik, struktur, funksional qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradigan farazlar umumlashirildi. Xususan, bitiruv malakaviy ishida antonomiya hodisasiga xos ichki xususiyatlarning rivojlanishidagi sistem ko'rsatkichlar tavsiflantiriladi, italyan tilida antonimlarning xilma-xilligi namoyon etildi.

Malakaviy ishning amaliy ahamiyati. Malakaviy ish tahlili va tadqiqi italyan tili o'qitish muassasalarida, kurslarida, shuningdek leksikologiya bo'limini o'rganishda va antonimlarning xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonlarida samarali ta'sir ko'rsatadi.

Malakaviy ishning metodi. Tadqiq qilingan ishni amalga oshirda tasviriy , distributiv hamda tarixiy – qiyosiy metodlardan foydalandi.

Malakaviy ishning struktur tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishning struktur tuzilishi kirish, asosiy qism ya'ni uch bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Malakaviy ishning birinchi bobida umumiy tilshunoslikda antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlari, grammatik qoidalari, leksik xususiyatlari, hosil bo'lishi, so'zlashuvda va adabiyotda ishlatilish qoidalari o'rganiladi.

Malakaviy ishning ikkinchi bobida italyan tilida antonimlarning ishlatilishi qoida qonunlari yoritib beriladi.

Malakaviy ishning uchinchi bobida tillararo shu jumladan o'zbek tilshunosligida hamda italyan tilshunosligida antonimiya hodisasining o'zaro mutanosibligi va farqlari tadqiq qilingan.

Malakaviy ishning xulosa qismida tadqiq qilingan mavzu borasida, tilshunoslik, leksikologiya, antonimiya hodisalari qonuniyatlaridan amalda qo'llanilishi borasida tegishli xulosalar chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qatorida malakaviy ishni tadqiq qilish jarayonida foydalanilgan barcha chet tilidaga, o'zbek tilidaga shuningdek internet tarmog'idan foydalanilgan manbaalar ko'rsatilgan.

Malakaviy ishning asosiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishning asosiy tuzilishi kirish ,har biri uch qismdan iborat bo'lgan uch bob, xulosa va foydanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I bob

Tilshunoslikda antonimiya hodisasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

1.1. Antonim leksik birlik sifatida

Til hayotimizda eng muhim aloqa vositasi hisoblanadi. Tilning eng ahamiyatli tomoni shundaki, u ma'lum bir shaxsga tegishli emas balki, butun bir jamiyatga xizmat qiladigan vositadir.

Jamiyatning butun bir tarixiy taraqqiyoti davomida o'zgarib borgan til avlodlardan avlodlarga me'ros bo'lib qolayotgan asosiy vositadir.

Tilning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, struktur, funksional xususiyatlari hamda o'ziga xos jihatlari, ichki tamoyillari va qonuniyatlarini, til strukturasini tashkil etuvchi unsurlarining o'zaro bir-biriga bo'lgan munosabati tilshunoslikni ilmiy yondashuvlar asosida tadbiq etishni talab etadi.

Tilshunoslik aynan tilning paydo bo'lishidan boshlab, uning tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib borishi, tilning og'zaki hamda yozma nutqlarda ko'rinishi, til va tafakkur, til va jamiyat, tilning ijtimoiy ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalarni o'rganadigan fan hisoblanadi.

Lingvistika ya'ni tilshunoslik tilni bir butun sistema sifatida hisoblab, jamiyatda shaxslar o'rtasida eng muhim hamda ahamiyatli aloqa quroli sifatida talqin etadi. Tilni har tomonlama tahlil qilish hamda tekshirish natijasida uning aynan ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish mutlaqo to'g'ri hisoblanadi.

Tilshunoslikni tadqiq qilish jarayonida tadqiq qiluvchi tomonidan tilshunoslikka oid bo'lgan barcha atama va terminlarni o'rganib chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan tilshunoslikning ko'plab tadqiq qilish sohalari va bo'limlari mavjud. Ular quyidagilar:

- fonetika;
- leksikologiya;
- grammatika;
- morfologiya;
- sintaksis;
- frazeologiya;

- orfografiya;
- punktuatsiya;
- dialektologiya;
- etimologiya;
- artikulyatsiya;
- stilistika va boshqalar.

Dunyoda 3000 dan ortiq tillar mavjud bo'lib, tilshunoslikning quyidagi sohaları barcha tillar uchun universal o'rganish obyektlari hisoblanadi.

Aytish joizki, har bir tilning o'ziga xos qonuniyatlari, struktural tuzilishi, leksik, morfologik, grammatik, sintaktik xususiyatlari mavjud. Til o'rganish jarayonida tilshunos aynan ushbu xususiyatlarga e'tibor bergan holda tilni tadqiq qiladi.

Tilshunoslikning eng muhim sohalaridan biri leksikologiya hisoblanib, uning predmetini leksika tashkil etadi. Har bir tilning lug'at tarkibi **leksikadan** iborat. Leksikalar ishlatilish doirasi hamda sohasiga ko'ra ma'lum bir turlarga bo'linadi. Masalan, biri xil sheva yoki dialektni ifodalash uchun – dialektal leksika, kasb-hunar atamalariga xos lug'atlar tarkibi uchun – terminologik leksikalar ishlatiladi.

Leksikologiya (yun."leksika" so'z, logos "ta'limot") tilshunoslikning eng kichik birliklari bo'lmish leksika, so'z, so'z birikmalarini struktur, semantik hamda funksional jihatlarini o'rganadi. Tilshunoslikning tarixiy taraqqiyoti davomida so'z "tilning eng kichik asosiy birligi", tilshunoslikning eng muhim o'rganish obyektlaridan biri sifatida qaralgan. Tadqiqotlar natijasida tilshunos olimlar tomonidan so'zning murakkab xususiyatli til birligi ekanligi aniqlandi. So'z yozuvda ma'lum bir harflar tizmasidan tashkil topgan, talaffuzda tovushlar yig'indisidan iborat bo'lgan, leksik jihatdan ma'no va mazmunni matnda aks ettirgan, grammatik qoidalar asosida yasalgan, morfologik jihatdan shaklan til va nutqda rivojlangan, gapda gap bo'laklari jihatidan o'z o'rniga ega bo'lgan, gapda hamda gapdan tashqarida semantik xususiyatga ega bo'lgan tilshunoslikning eng kichik o'rganish obyekti hisoblanadi.

Soʻz va soʻz birikmalarining mazmun jihatdan oʻzgarishi, kengayishi, torayishi, shaklan va maʼno munosabatiga koʻra turlari, ularning jamiyat oʻzgarishi natijasida ijtimoiy hamda hududiy qatlamlarda tutgan oʻrni, tilda muhit va zamon taʼsirida kirib kelayotgan yangi soʻzlarni shu jumladan yoʻqolib borayotgan eski soʻzlarni leksikologiya boʻlimi oʻrganadi.

Oʻz navbatida, leksikologiyaning quyidagi **semasiologiya, leksikografiya, etimologiya, frazeologiya, onomasiologiya, onomastika** kabi kichik boʻlimlari mavjuddir.

Semasiologiya (“sema” maʼno “logos” taʼlimot) leksikologiyaning kichik boʻlimlaridan biri boʻlib, soʻzlarning maʼno anglatuvchi birliklarini oʻrganadi. Tildagi soʻzlar shakl va maʼno jihatdan izohlanadi. Soʻzlarning shaklan harflar va tovushlardan tashkil topgan boʻlib, aynan tovushlar yigʻindisidan iborat boʻlgan soʻzlar anglashilgan maʼno semasiologiyada oʻrganiladi.

Leksikografiyada har bir tilda mavjud boʻlgan, tilshunoslar tomonidan doimiy tilshunoslikning oʻrganish quroli hisoblanmish lugʻatlarning tuzilish tamoyillari, ularning turlari hamda turkumlari oʻrganiladi.

Etimologiya. Yuqorida taʼkidlanganidek, har bir til tarixiy taraqqiyot davri hamda bosqichlarini bosib oʻtadi. Ijtimoiy, hududiy, madaniy hamda muhitdagi oʻzgarishlar taʼsiri ostida tilda grammatik, leksik, fonetik, sintaktik jihatdan yangiliklar vujudga keladi. Etimologiya tildagi aynan mana shunday oʻzgarishlarni xususan, boshqa tildan kelgan oʻzlashma soʻzlarni shakl va maʼnosini hisobga olgan holda oʻrganadi.

Frazeologiyada tilda mavjud boʻlgan turgʻun holdagi birikmalarni, iboralarining koʻchma maʼnoda qoʻllanilish xususiyatlarini oʻrganadi.

Onomasiologiyada predmet, narsa va hodisalarga nom berish qoidalarini, onomastikada atoqli otlar oʻrganilib, ular ikkiga ajratiladi: **Antroponimika** (shaxslarga qoʻyilgan ismlar ilmiy jihatdan tekshirilsa), **toponimika** va **etnonimika** (joy nomlari, maʼlum bir xalqning urugʻi nomlari, etnik jihatdan kelib chiqqan turli xil millatlarning nomlari oʻrganiladi.)

Leksikologiyaning o'rganish obyekti so'z hisoblansa, tilshunoslikda uning o'rganish predmetlarini quyidagilar tashkil qiladi.

- a) tilshunoslikning leksik muammolari, leksemalarning o'rganilishi hamda leksik birliklar;
- b) lug'at tarkibida til strukturasining ahamiyatliligi;
- c) til va nutqda leksik hamda lug'aviy birliklarning qo'llanilishi;
- d) tildagi lug'at tarkibining boyish va kamayishi;
- e) til va nutqdan tashqari holda leksik hamda lug'aviy birliklarning ishlatilishi.

So'z nafaqat leksik muammo balki tilshunoslikda umumlingvistik muammo bo'lganligi sababli umumiy tilshunoslikda so'z umumiy so'z nazariyasi doirasida ham o'rganiladi.

Shaklan va ma'no jihatidan so'z quyidagi tahlil yondashuvlar asosida tadqiq etiladi:

- a) so'zning struktur jihatdan tahlili(so'zning shaklan tuzilish xususiyatlari);
- b) so'zning semantik jihatdan tahlili(so'zning ma'no va mazmuni);
- c) so'zning funksional jihatdan tahlili(so'zning til doirasida tutgan o'rni).

Leksikologiyada o'rganish obyektlari hamda predmetlarini tadqiq qilish jarayonida quyidagi metodlardan foydalaniladi: distributiv (so'zning leksik chegaralari hamda morfologik strukturasini aniqlash), substitutsiya (so'zlarning ma'no jihatdan tahlili), component tahlil, transformatsion va statistik metodlardir.

Leksikologiyaning asosiy o'rganish obyektlari so'z, leksema, sememalar hisoblanadi. **Leksema** nazariy yondashuvda leksik sath birligi, tilshunoslikda eng muhim markaziy tushuncha hisoblanadi. **Leksema** lisoniy birlik bo'lsa, **so'z** uning nutqiy voqealanishi, nutqiy birlik.¹ Ya'ni leksema tilshunoslikning muhim birligi sifatida o'rganiladi va tadqiq qilinadi. So'z esa leksemaning nutqda qo'llanilishi va voqealanishi hisoblanadi. Masalan, “*kitob*”, “*qalam*”, “*bir*”, “*qora*”,

¹ Sayfullyeva R. Mengliyev B.Boqiyeva.G,Qurbonova.M,Yunusova.Z,Abuzalova.M “Hozirgi o'zbek adabiy tili”- Toshkent. 2009. 88 bet

“yugurmoq” kabi ma’lum bir ma’no anglatuvchi leksemalar ishlatilish uchun “buyruq kutayotgan” holda turishadi. Leksema so’zlovchining nutqida so’z, struktura, yasama so’z sifatida yuzaga chiqib, undan anglashilgan ma’no **semema** hisoblanadi. Semema nutqda, gapda leksemalarning turli xil ko‘rinishlaridan kelib chiqqan mazmun mohiyatni anglatadi. Bunday mazmun mohiyat aynan narsa-buyum, sifat, miqdor, harakat, holat kabi leksemalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Masalan, “quyosh” leksemasining bir nechta semantik ma’nolari mavjud:

1. “nur taratuvchi”
2. “issiq”
3. “gallaktikaning o‘chog‘i”
4. “planetalardan biri”
5. “olovli sayyora”

So‘zlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari

Nutqiy munosabat jarayonida tilning tarkibiy qismi turli xildagi ma’no munosabatlardan tashkil topgan, o‘zaro bir-biriga bog‘liq, bir-biriga yaqin, bir-birini inkor qiladigan yoki qarama-qarshi turadigan so‘zlardan iborat. **Sinonim, antonim, omonim so‘zlar hamda polisemantik, graduonimik, partonimik, giponimik** munosabatlar shular jumlasidandir. Bu munosabatlardan kelib chiqqan mazmun-mohiyat tilning boyishi, ta’sirchanligining oshishiga, nutqda takrorlanishlarning kamayishiga, nutqning tushunarli tarzda akslanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Sinonimiya. Shaklan har xil ammo, bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi.¹ Bu turdagi munosabatlar sinonimiya yoki sinonimik munosabatlar sifatida ham akslantiriladi. Masalan, “katta”, “ulkan”, “buyuk”; “yuz”, “bet”, “aft”, “bashara”, “turq”, “oraz”.

Antonimiya leksemalar o‘rtasidagi qarama-qarshi, ma’nosi bir-biriga zid bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi: “ulkan-kichkina”, “kecha-kunduz”, “ochiq-yopiq”.

¹ Sayfullyeva.R, Mengliyev.B, Boqiyeva.G, Qurbonova.M, Yunusova.Z, Abuzalova.M “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”- Toshkent. 2009 yil 112 bet

Graduonimiya. Yuqorida soʻz yuritilgan lugʻaviy birliklar maʼno munosabatiga koʻra darajalanish xususiyatiga ega. Bunday darajalanishning eng soda koʻrinishlaridan biri bu “oʻrta” soʻzini qabul qiluvchi sifatlardir. Masalan:

“baland”-“oʻrta”-“past” , “uzun”-“oʻrta”-“qisqa” , “keng”-“oʻrta”-“tor” .

Giponimiya. Tur-jins munosabatlarini bildiradigan bir turkumga kiruvchi soʻzlar. Masalan: “atirgul”, “binafsha”, “nastarin”, “boychechak”.

1.2. Antonimlarning hosil boʻlishiga koʻra turlari

Antonimlar tillardagi qarama-qarshi maʼnoni anglatuvchi soʻzlardir. Dunyoda hamma narsa juftlik prinsipiga asoslanganligi maʼlum. Juftlik borligi uchun dunyoda taraqqiyot bor. Lekin har qanday juftlik ham taraqqiyot, rivojlanishning asosi boʻla olmaydi.¹

Masalan: “chiroyli-xunuk”, “qalin-ingichka”.

“Shu kecha ota oʻgʻil toʻrt otliga ergashib, boʻz otiga mingashib ketgan kun kim bundan **xabarli**, kim **bexabar** qoldi. Tongda Shamolli qishlogʻining shamollari bezovta esganidaayni bahor fasli edi. Bahor mum tishladi, ammo hali ayozning savollari koʻp edi. Qaysi **javobli**, qaysi **bejavob** boʻldi, ammo, ota-bolaning jon joyidan tutdi.”²

Mazkur matn parchasidan aytish mumkinki, antonim soʻzlar nafaqat ogʻzaki nutqda balki, badiiy matnlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday antonim soʻzlar nutqda ham, matnda ham bir-biriga bogʻliq hisoblanib, bir-birining maʼno munosabatlarini toʻldirib turadi. Antonimlarning kelib chiqishida qiyoslash nazariyasi muhim ahamiyatga ega boʻlib, qiyoslangan narsa-hodisa yoki belgi-sifatlarning bir-biriga munosabati qarama-qarshi soʻzlarda akslantiriladi. Dunyo turli-tumanlik hamda rang-baranglikdan iboratdir. Antonimlar matn hamda nutq jarayonlarida ishtirok etib, ushbu rang-baranglikni namoyon qilish uchun xizmat qiladi.

¹ Irisqulov, M “Tilshunoslikka kirish”- Toshkent.: “Oʻqituvchi”, 1992. 107 bet

² Oʻzbekiston yoshlarining adabiy-ijtimoiy jurnali- “Yoshlik” 5(277) 2014. 51 bet

Tildagi barcha soʻzlarning antonimlari bor deb aytish joiz emas, balkim tillarning lugʻat boyligida antonim boʻlmaydigan soʻzlarning soni koʻp. Shu jumladan: “*nok, qalam, daftar*”; ingliz tilida: “*a dog, a pen, a girl*” kabi soʻzlarning antonim varianti mavjud emas. Antonimlar kelib chiqishiga koʻra ikkiga ajratilib oʻrganiladi: **asliy leksik antonimlar** hamda **yasama antonimlar**.

Asliy leksik antonimlar til doirasida tabiiy jihatdan mavjud boʻlgan va ishlatilib kelayotgan antonimlar hisoblanadi. Masalan: “*oq-qora, yer-osmon*” va boshqalar.

Yasama antonimlar til doirasida juda koʻp tarqalgan antonimlar hisoblanib, ular tilda boshqa til vositalaridan hosil boʻlgan. Bu vositalar soʻzlarning oldidan yoki oxiridan kelib, narsa-hodisa, belgi, holat, ish-harakat kabi soʻzlarni bir-biriga inkor qilgan holda qarama-qarshi soʻzlarning kelib chiqishiga xizmat koʻrsatadi. Masalan oʻzbek tilida **no-**, **be-**, **-siz** kabi qoʻshimchalar yordamida soʻzlar orasida antonimlar hosil qilinadi. “*xabardor-bexabar*”, “*layoqatli-layoqatsiz*”, “*toʻgʻri-notoʻgʻri*”. Bundan tashqari feʼl soʻz turkumiga oid soʻzlarga **–ma** qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida antonimlar hosil boʻladi: “*kel-kelma*”, “*qil-qilma*”, “*yoz-yozma*” kabi. Ingliz tilida **non** soʻzi soʻzlarda mana shunday ziddlik maʼnolarini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Bu ikki turdagi antonimlar dunyodagi barcha tillarda mavjuddir. Yasama antonimlar til va nutqda ziddlik munosabatlarini hosil qilish uchun xizmat qilsa, asliy antonimlar soʻzlar orasidagi ziddlik munosabatidan tashqari, yangi tushuncha, tur va munosabat hosil qiladi. Umumiy jihatdan olib qaralganda, antonimlar aniq tushunchalarni ifodalaydigan soʻzlarga nisbatan, mavhum maʼnoni ifodalaydigan soʻzlarda koʻproq uchraydi. (*chiroyli-xunuk, keng-tor va boshqalar*)

Antonimlar oʻgʻzaki hamda yozma nutqda narsa, hodisa, ish-harakat, holat, belgi-xususiyatlardagi qarama-qarshiliklarni aniq, taʼsirchan, fikrni toʻliq ifodalash uchun yordam beradi.

Yuqorida taʼkidlanganidek, tildagi barcha soʻzlarning antonim varianti mavjud emas. Ammo til va nutqdagi baʼzibir holatlarda kontekstual antonimiya ishlatiladi. **Kontekstual antonimiya** oʻzaro qarama-qarshi boʻlmagan leksemalar

matn ichida mazmun munosabatga binoan bir-biriga zid ma'no ifoda etadi. Bunday antonimiya hodisasini quyidagi she'riy misralarning tahlili natijasida ko'rishimiz mumkin:

Ushoq qand oq tuzga monand erur,

*Va lekin biri **tuz**, biri **qand** erur.*¹

Quyidagi misolda ishlatilgan **qand** va **tuz** so'zlari leksik jihatdan o'zaro bir-biriga qarama-qarshi bo'lmagan, ot so'z turkumiga mansub bo'lgan leksemalar hisoblanadi. Ushbu she'riy misrada ular kontekstual antonimlar tarzida ishlatilgan. Shakl jihatdan turdosh otlar turkumiga kirs, mazmun mohiyatiga binoan ular narsa-predmet nomini emas, balki, "*achchiq*" va "*shirin*" ma'nolarni ifodalovchi so'zlar hisoblanadi.

Olmosh hamda sonlarni bildiruvchi so'zlarda bunday qo'llanishlar ishlatiladi: "*bir u yon, bir buyonga qaraydi*", deganda *u* va *bu* olmoshlarida kontekstual zidlanish mavjud.

Antonimlarning keng qo'llaniladigan turi leksik antonimlar hisoblanadi. Leksik antonimiya leksemalarining bir-biriga qarama-qarshi, zid ma'nolarda ishlatilishiga nisbatan aytiladi: "*yaxshi-yomon*", "*oz-ko'p*" kabi.

Antonimiya hodisasi tilshunoslikda, asosan, bir so'z turkumi leksemalari orasida yuzaga keladi.

Sifatlar:

- a) sifat belgisiga ko'ra: *quruq* va *ho'l*;
- b) yoshning ko'rsatilishiga ko'ra: *yosh* va *qari*;
- c) o'ziga xos xarakter-xususiyatiga ko'ra: *chiroyli* va *xunuk*, *jasur* va *qo'rqoq*, *aqqli* va *axmoq*;
- d) shakl-belgisiga ko'ra: *egr* va *to'g'ri*;
- e) ma'za-ta'm belgisiga ko'ra: *achchiq* va *shirin* kabi.

Payt, holat, miqdor ma'noli leksemalar doirasida ham antonimiya hodisasi keng tarqalgan:

¹ Yo'ldoshev. I, Sharipov .O "Tilshunoslik asoslari" - Toshkent.: "Iqtisod-Moliya", 2007. 96 bet

- a) *kecha* va *ertaga*, *avvalo* va *keyin*(payt);
- b) *tez* va *sekin*, *arang* va *bemalol*(holat);
- c) *ko‘p* va *oz*, *mo‘l* va *kam*(miqdor) boshqalar.

Otlarda:

- a) belgi otlarida: *boylik* va *kambag‘allik*;
- b) qarama-qarshi tomon nomlarida: *yoz* va *qish*, *kuz* va *bahor*;
- c) sutkaning qarama-qarshi tomonlarini ifodalovchi nomlarida: *kecha* va *kunduz*, *tong* va *shom* kabi.

Fe’llarda:

- a) qarama-qarshi m’nolarni ifoda etuvchi fe’llarda: *bormoq* va *kelmoq*;
- b) sifat yoki ravishdan yasalgan fe’llarda: *kengaymoq* va *toraymoq*, *sekinlashmoq* va *tezlashmoq* kabi.¹

Enantiosemiya (yun.*enantios* – qarama-qarshi+sema – belgi) bitta leksema ma’nosida nutqiy muhim talabga ko‘ra zidlanishning ifodalanishi. Masalan, o‘zbek tilidagi “*chiqmoq*” fe’li aslida “*ichkaridan tashqariga harakatlanish*”ni ifodalaydi. Shu bilan birga transport vositalaridan foydalanishda “*tashqaridan ichkariga harakatlanish*”ni ham anglatadi.

Tilshunoslikda antonimlarni belgilash me’zonlari bo’yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan ayrim manbaalarda “*opa* va *singil*, *aka* va *uka*, *tog‘a* va *xola*” kabi so‘zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo’yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, balki bir-biriga juda yaqin so‘zlar deb asoslaydi.

Antonimiya me’zonini belgilashda Sh.Rahmatullayev, N.Mamatov va R.Shukurovlar tomonidan tavsiya etilgan mantiqiy markaz prinsipiga tayanish yaxshi natija berdi. Bu prinsipga ko‘ra ikkita ma’no o‘rtasidagi oraliq tushuncha aniqlanadi va shu markazning ikki tomonidan o‘rin olgan tushunchalar o‘zaro

¹ Yo‘ldoshev. I, Sharipov .O‘ “Tilshunoslik asoslari“- Toshkent.:“Iqtisod-Moliya”, 2007. 96 bet

antonimik munosabatlarda deb qaraladi. Masalan, “*qish bilan yoz*” orasida “*bahor*” bor, demak “*qish va yoz*” leksemalari o‘zaro antonim deb qaraladi.

Antonimiya va polisemiya hodisalari o‘zaro bog‘liqdir: ko‘p ma’noli leksema o‘zining bosh ma’nosi bilan bitta antonimik juftlikka, hosila ma’nosi bilan esa boshqa antonimik juftlikka kirishi mumkin. Masalan: “*achchiq qalampir*” va “*shirin olma*” birikmalarida “*achchiq*” va “*shirin*” leksemalari o‘zlarining bosh ma’nolari orqali antonimik munosabatga kirishgan: “*achchiq gap*” va “*shirin gap*” birikmalarida esa “*achchiq*” va “*shirin*” leksemalarining hosila (ko‘chma) ma’nolari antonimiyaga asos bo‘lgan.

Tilshunoslikda antonimlarni belgilash mezonlari bo‘yicha munozarali qarashlar ham bor. Xususan, ayrim manbaalarda opa va singil, aka va uka¹ tog‘a va xola² kabi so‘zlar antonimlar deb baholanadi. Shu soha bo‘yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlari olib borgan. B.Isabekov esa ularni antonimlar emas, ifrelyativ so‘zlar deb baholaydi, buni yuqoridagi leksemalarning ma’nolari qarama-qarshi emas, balki bir-biriga juda yaqindir deb asoslaydi.

1.3. Tarjimada antonimlarning variantdoshligi

Tarjima so‘zi – forsha “*Tarzabon*” so‘zidan arabiylashgan (“*Tarzabon*”- chiroyli so‘zlovchi, notiq, tili burro kishi degan ma’noni anglatadi). Arab tiliga “*Tarjumon*” shaklida o‘tgan, undan “tarjima” yoki “tarjuma” so‘zi hosil bo‘lgan. Tarjima so‘zi arab tilida- bir tildan ikkinchi tilga ag‘darish, o‘girish; izohlash, sharhlash; bibliografiya- degan ma’nolarni anglatadi. Milliy tilimizga o‘zlashib tarjima so‘zi:

1) Bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat ijod turi, (misol uchun erkin tarjima, so‘zma-so‘z tarjima);

2) Bir tilda boshqa tilga ag‘darilgan matn ma’nolariga ega. Tarjimadagi so‘z va iboralar bir-birini mazmunini to‘ldiradi.³

Tarjimaviy tadqiqotning asosini, birinchi navbatda, so‘z tashkil qiladi, ammo so‘z o‘z matniy muhitidan (asarning mikro va makro kontekstidan) ajratilgan

¹Usmonov. S” O‘zbek tili va adabiyoti masalalari” jurnali 1958,2 son,38 bet

² Hozirgi o‘zbek adabiy tili, Toshkent.; 1966, 146 bet

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent.;, 2007

tarzda emas, balki unga asoslangan holda boshqa soʻzlar bilan matniy birikkan, turli-tuman munosabatlarga kirishgan holatida tadqiq qilinadiki, uning bu xususiyati yozuvchining badiiy-estetik maqsadini roʻyobga chiqarishi vositalaridan biri hisoblanadi, zero, «alohida ajratilgan, matniy holat bilan bogʻlanmagan soʻz muloqotni tashkil etmaydi, u kommunikativ birlikning alohida unsurigina, xolos» .

Soʻz aksariyat hollarda adabiyotshunoslik va lisoniy-uslubiy tadqiqotlar tarkibida ham, tarjimaviy tadqiqot tarkibida ham narsa va hodisalarning bilvosita, koʻchma-atamaviy vositasi sifatida gavdalanadi. Oʻz-oʻzidan maʼlumki, har qanday badiiy matn tarkibida ishtirok etuvchi toʻgʻri maʼnodagi bevosita atama badiiy tarjimaning asosiy vazifalarini amalga oshirishda bilvosita, koʻchma atama darajasida hal qiluvchi ahamiyat kasb eta olmaydi, binobarin, tarjimaning asosiy mushkulotlari bevosita atama bilan deyarli bogʻliq emas. Yozuvchining badiiy-tasviriy maqsadi asosan obrazli-metaforik xususiyatli soʻz va frazeologik birliklar, ularning rang-barang koʻchma-majoziy maʼnolari asosida roʻyobga chiqadiki, bularning barchasi bilvosita atamaga tayanadi. Bilvosita atama yozuvchining til va uslub xususiyati haqida toʻlaroq tasavvur berib, tarjima oldida turgan vazifalarni toʻgʻri hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.¹

Maʼlum bir matnni tarjima qilish tarjimondan yuksak mahorat talab qiladi. Zero, tarjima jarayonida tarjimon tarjima qoidalariga boʻysunib, asliyatga ijodiy yondashgan holda tarjima qilishi lozim. Tarjima qilish jarayonida tarjimon tilning leksik, grammatik, sintaktik, frazeologik, leksikografik, dialektik muammolariga eʼtibor berishi lozim. Tarjimaning mana shunday muhim muammolaridan biri leksik muammolardir. Tarjimon tarjimaning leksik yondashuvida bilvosita soʻz, leksema, polisemantik, omonim, sinonim, antonim, paronim, leksik birliklar, leksik transformatsiyalar orqali matnni mazmunan toʻliq va mukammal tarjima qiladi. Xususan antonimiya hodisasi va antonim soʻzlar tarjima jarayonida tarjimon uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Antonimlar ishtirokida va antonim soʻzlar yordamidagi tarjima tarjimashunoslikning leksik muammolariga kirib, tarjimaning leksik transformatsiya usullaridan biri hisoblanadi.

¹ Musayev. Q *“Tarjima nazariyasi asoslari”* - Toshkent.: Oʻzbekiston Respublikasi FA «Fan» nashriyoti, 2005. 6 bet

Leksik transformatsiyalar

Tarjimaning leksik muammolarini hal etishda ikki tilli lugʻatlar maʼlum jihatdan ahamiyati katta hisoblanadi. Biroq odatda lugʻatlarda soʻz maʼnosining muqobillarigina beriladi. Tarjima lugʻati qanchalik mukammal boʻlmasin, unda soʻzlarning barcha maʼnolari yoki maʼno nozikliklarini qamrab olishning iloji yoʻq. Tarjima uchun til tizimlari emas, balki nutq, aniqroq qilib aytadigan boʻlsak, nutq mahsuli boʻlmish matn muhimroqdir. Tarjima jarayonida tarjimon koʻp maʼnoli soʻzning qaysi maʼnosi qoʻllanilganligini kontekst asosida oʻzi aniqlamogʻi lozim.

Leksik transformatsiyalar tarjima nazariyasida soʻzlarni kontekstda almashtirish deb ham yuritiladi. Bunday transformatsiyalarning beshta turi mavjud.

1. Bu turdagi transformatsiyalar keng maʼnoli yoki maʼnosini aniqlash qiyin boʻlgan soʻzlarni tarjima qilishda qoʻllaniladi. Transformatsiyaning bu turi asliyat soʻziga aniqlik kiritish yoki uni konkretlashtirilganda qoʻllaniladi. Masalan, “*to get*” (ingliz tili) feʼlining maʼnolari oʻzbek tilida quyidagicha: “*olmoq, ushlab olmoq, tushunmoq, oʻylantirmoq, aloqa qilmoq, yetib olmoq, aylanmoq, oʻzgartirmoq, ketmoq(oqarib ketmoq)*” va boshqalar.

2. Transformatsiyaning ikkinchi turi umumlashtirish nomi bilan ataladi. Tarjimada aksariyat hollarda asliyatda berilgan maʼnoda tarjima tili normalarida ortiqcha hisoblanganligi bois baʼzi aniqliklarni umumlashtirish tarjimaning pragmatik xususiyatlariga ham bevosita bogʻliqligini koʻrsatadi. Masalan: “*Coca-cola*”, “*Pepsi-cola*”, “*Chevron*”, “*Tayota*” va boshqalar.¹

3. Uchinchi turda ikki hodisa oʻrtasidagi mantiqiy aloqaga asoslanadi. Ulardan bittasi asliyat matnini atasa, ikkinchisi uni tarjima variant deb hisoblaydi. Bu transformatsiya matnda tasvirlangan vaziyatning semantik hamda mantiqiy tahlilini talab etadi. Masalan, “*I not only shared a cabin with him and ate three meals a day at the same table...*” – “*men u bilan bir kunda bitta stol atrofida uch marta uchrashar edim*” agar soʻzma-soʻz tarjima qilinsa “*men u bilan nafaqat bir*

¹ I.Gofurov, O.Moʻminov, N.Qambarov “Tarjima nazariyasi” – Toshkent.: Tafakkur boʻstoni, 2012. 111 bet

kupedamiz, balki u bilan bir stol atrofida uch mahal uchrashar edik ham“. “*men u bilan nafaqat bir kupedamiz*” gapi bu yerda ortiqcha.

4.Transformatsiyaning bu turi antonimik tarjima hisoblanadi. Bunday tarjima ba’zi hollarda aslyatda qo’llanilgan so’z tarjimada antonim bilan almashtirilishini anglatadi, boshqacha qilib aytadigan bo’lsak, agar gapda inkor so’zi bo’lsa, u tarjimada tushirib qoldiriladi: “*take it easy-tasvishlanaverma*”, “*I don’t want to cheat*” – *men to’g’risini aytaman*.

Antonimik tarjima

Antonimik tarjima bu tarjima jarayonida keng qo’llaniladigan kompleks leksik–grammatik almashtiruvdir. Bunda tasdiq grammatik konstruktsiya inkor grammatik konstruktsiyaga, yoki aksincha, inkor konstruktsiya tasdiq konstruktsiyaga almashtiriladi. Shu bilan birga asl matndagi biror so’z tarjima tilida uning antonimiga almashtiriladi (odatda «antonim» so’zi bir tilning so’zlariga nisbatan qo’llaniladi; bu yerda «antonim» so’zini ikki tilning – asl matn tili va tarjima tilining ma’nolari qarama-qarshi bo’lgan so’zlarni ifodalash uchun qo’llanilgan).

Antonimik tarjimaga ehtiyoj paydo bo’lishining uchta asosiy sababi bor:

- a).aslyat va tarjima tillari xususiyati;
- b)kontekst talablari hamda;
- c)tarjima tilidagi an’anaviy normaning mavjudligi.¹

d)Antonim so’zlar guruhi aslyat va tarjima tillarida bir-biriga to’g’ri kelishi shart bo’lmagan hollarda: „*armament*“-„*disarmament*“ so’zlari o’zbek tiliga „*qurollanish*“ hamda „*qurolsizlanish*“ deb tarjima qilinadi.

e)Ba’zan antonimlar tarjimasi kontekstdagi ma’noni beradigan eng maqbul usul bo’lib hisoblanishi mumkin: „*a murder is only safe when he is in prison*“- „*qotil qamoqxonada bo’lsagina xavfli emas*“. Bu gapda alohida olingan „*safe*“ so’zi „*ishonchli*“, „*xavf-xatardan xoli*“ deb tarjima qilinadi. Biroq kontekst asosida uni „*xavfli emas*“ deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdir.

¹ I.Gofurov, O.Mo’minov, N.Qambarov “Tarjima nazariyasi”-Toshkent.: Tafakkur bo’stoni, 2012. 112 bet

f)Ba'zi hollarda yoki kontekst talabi bilan transformatsiya emotsional hamda stilistik bo'yoqdor matnlarni tarjima qilishda qo'l keladi. „*Why don't you know he is deaf?*“–„*u so'qov-ku!*“. Bu gapni „*uning so'qovligidan xabaring yo'qmi?*“ deb tarjima qilsa ham bo'ladi, ammo gapning avvalgisiga nisbatan emotsionallik darajasi ancha past.

5) So'nggi transformatsiya kompensatsiya yoki gapning tushirib qoldirilgan qismini to'ldirish deb ataladi. Bu odatda asliyatdagi stilistik usullarni tarjima tilida muqobili yoki ekvivalenti yo'q bo'lgan hollarda qo'llaniladi.¹ Matnning stilistik jihatdan to'laqonli bo'lishida bir stilistik usul o'rniga iloji biricha uning o'rnini to'liq bosadigan boshqa bir stilistik vositadan yoki stilistik usuldan foydalanish nazarda tutiladi.

Tarjimaning leksik muammolarini yuqorida ko'rib chiqilgan transformatsiyaning beshta turi yordamida hal etish mumkin. Qaysi transformatsiya usuli qayerda qo'l kelishini belgilash tarjimonning mahorati va tajribasiga bog'liq. Tarjimon ikki tilni mukammal bilishi bilan bir qatorda uning barcha sohalaridan xabardor bo'lishi juda muhim. So'z tanlash uslub va janrning xususiyatlarini, imkoniyatlarini hisobga olishi yaxshi natija beradi.

¹ I.Gofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov . *Tarjima nazariyasi -Toshkent.: Tafakkur bo'stoni, 2012. 113 bet*

I bob bo'yicha xulosa

Tilshunoslikni tadqiq hamda tadbqiq qilish jarayonida, uning har bir o'rganish obyektlariga alohida e'tibor bilan yondashish talab etiladi. Aynan leksikologiya tilshunoslikning eng muhim sohalaridan biri sifatida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Antonimiya hodisasini o'rganish tilshunoslikning ta'sirchanligi, ma'nolar o'rtasidagi muvozanatning mantiqiy bog'liqligida, badiiy hamda so'zlashuv tillaridagi mazmunan moslashishida katta ahamiyat kasb etadi. Xususan antonimlar leksik birlik sifatida, tilshunoslikda struktur, semantik hamda funksional jihatdan tahlil qilinadi va ishlatiladi. Yuqorida ta'kidlanganidek, antonimlarning asliy hamda yasama turlari mavjud bo'lib, asliy antonimlar leksemalarda turg'un ma'no anglatib, hech qanday qo'shimchalarsiz hosil bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Yasama antonimlar esa tilshunoslikda ma'lum bir turkumlarga mansub so'zlardan qo'shimcha qo'shilish natijasida hosil bo'lgan. So'z turkumlar doirasida antonimlar tilshunoslikda otlar, sifatlar, fe'llar ba'zan ravishlardan hosil bo'ladi.

Antonimlar nafaqat til o'rganish, tilni tadbqiq qilish, og'zaki va yozma nutqlarni hosil qilishda balki, tarjima san'ati hamda tarjimashunoslikda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tarjimashunoslikda antonimiya hodisasi leksik muammolardan biri sifatida o'rganilib, tarjimada kontekstni to'liq, mukammal, mazmunan hamda mantiqan ma'no bog'liqligi bilan tarjima qilishda leksik transformatsiyaning bir usuli sifatida tadbqiq qilinadi. Ma'lum bir tilda o'zaro antonim hisoblanmagan, mazmunan bir-biriga qarama-qarshi hisoblanmagan so'zlar, kontekst mazmuniga binoan boshqa bir tilda o'girilganda ayrim hollarda antonim so'zlarga aylanib, kontekstning mantiqan ta'sirchanligini oshirish uchun xizmat ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikning har bir sohalarida antonimiya muhim ahamiyatga ega bo'lib, nutqimizni boyitish, narsa-hodisa, harakat, holat, belgining bir-biriga bo'lgan semantik jihatdan bog'liqligini ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi.

II bob

Italyan tilida antonimlarning yasalishi va qo'llanishi

2.1. Italyan tilida “antonim” tushunchasining qamrovi xususida

Umumiy tilshunoslikda antonimiya hodisasi muhim ahamiyat kasb etganidek, roman-german tillari oilasiga mansub bo'lgan italyan tilida ham antonimlar tilshunoslikning eng muhim o'rganish obyektlaridan biri sifatida tadbiq qilinadi. Xususan italyan tili hozirda muomalada hisoblanmaydigan eski lotin tili asosida kelib chiqqan til sifatida o'zining struktur, semantik hamda funksional jihatlarini bilan roman-german tillari oilasiga mansub tillar bilan umumiy bog'liqlikda o'rganiladi. Italyan tilida tilshunoslik "La linguistica"ga quyidagicha ta'rif beriladi:

“La linguistica si puo` definire la scienza del linguaggio e delle lingue.”¹

Ya'ni tilshunoslik til va til sohalarini o'rganadigan ilm hisoblanadi. Italyan tilshunosligining quyidagi bo'limlari mavjud.

- 1.la fonetica – fonetika;
- 2.la lessicologia – leksikologiya;
- 3.la grammatica – grammatika;
- 4.il sintassi – sintaksis;
- 5.la morfologia – morfologiya;
- 6.la stilistica – uslubiyat va boshqalar.

Italyan tilshunosligining eng muhim bo'limlarida biri „la lessicologia“ hisoblanadi

„Lessicologia e` un ramo di linguistica che studia il vocabolario di una lingua. Il suo scopo e` studiare l'origine le diverse particolarita` della lingua. In altre parole, lessicologia e` legata con le parole e le espressioni. Lessicologia studia tutti tipi di relazione semantica (sinonimi, antonimi, omonimi e ecc)

La parola lessicologia e` una parola greca “lexis“ significa parola, „logos“ studio“.

¹ M.Dardano, P.Trifone "La lingua italiana" – Bologna.:Zanichelli,2003. pag 51

Ya'ni italyan tilida leksikologiya tilshunoslikning eng muhim bo'limlaridan biri bo'lib, unda tildagi so'zlarning ishlatilish qonuniyatlari, lug'at sistemasini tashkil qiluvchi so'zlar o'rganiladi. Shu jumladan leksikologiyaning maqsadi tilning kelib chiqishi hamda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishdir. Umuman olganda leksikologiya so'zlar hamda iboralar bilan shu'ullanadigan sohadir. Leksikologiya barcha so'zlarning ma'no-munosabatiga ko'ra turlarini o'rganadi.(sinonimlar, antonimlar, omonimlar va boshqalar).

Italyan tilida leksikologiya quyidagi 5 turkumga bo'lingan holda o'rganiladi. Ular:

1. **Lessicologia generale** (umumiy leksikologiya);
2. **Lessicologia speciale** (maxsus leksikologiya);
3. **Lessicologia descrittiva** (tasviriyl leksikologiya);
4. **Lessicologia storica** (tarixiy leksikologiya);
5. **Lessicologia comparativa** (qiyosiy leksikologiya).

Lessicologia generale. Umumiy leksikologiya noaniq bo'lgan biror tilning o'ziga xos xususiyatlarini, so'zlarning ishlatilish qonuniyatlarini o'rganadi. Masalan, roman-german tillari oilasiga mansub bo'lgan tillar(fransuz, ispan, italyan, portugal va boshqalarga)dagi so'zlarning qo'llanilishi va o'ziga xos xususiyatlari umumiy jihatdan tahlil qilinadi.

Lessicologia speciale. Maxsus leksikologiyada aniq bir tilga mansub bo'lgan so'zlar o'rganiladi. Masalan, italyan, ispan, rus tillari va boshqalar.

„Il nome, il cane, lo sbaglio, la citta, la cinema, la foto“.

Lessicologia descrittiva. Leksikologiyaning bu turi zamon bilan bog'liq. Ya'ni unda tilimizdagi ayni paytda ishlatilayotgan, jamiyatning eng muhim ijtimoiy muloqotida bo'lgan so'zlar tadqiq qilinadi. Shu nuqtayi nazardan leksikologiyaning ushbu turi uchun so'zlarning kelib chiqishi tarixi, dastlabki ishlatilgan ekvivalenti hech qanday ahamiyatga ega emas. Masalan, italyan tilidagi *„fontem, lupo, cattivo“* leksemalari tarixda qanday ishlatilganligidan qat'iy nazar hozirda aynan shunday strukturada ishlatilib, ma'lum bir kontekstda semantik ma'no hosil qiladi.

Lessicologia storica o diachronica. Tarixiy leksikologiyada o'tmishdan boshlab, hozirgacha ijtimoiy o'zgarishlar natijasida tildagi so'zlarda strukturaviy, semantik hamda funksional jihatdan yuzaga kelgan barcha o'zgarishlari va yangilanishlari o'rganiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan „*fontem, lupo, cattivo*“ so'zlari dastlab lotin tiliga mansub „*fonte, lupus, captivus*“ leksemalari shaklida bo'lgan.

Lessicologia comparativa. Qiyosiy leksikologiyada asosan ikki va undan ortiq tillarga mansub bo'lgan so'zlar leksik jihatdan qiyoslanadi. Qiyoslash jarayonida so'zlarning asosiy va nuhim jihatlari ahamiyatga olinadi. Masalan, italyan tilidagi „*andare*“ fe'li, ingliz tilida „*to go*“, o'zbek tilida „*bormoq*“, rus tilida „*уѡду*“ shaklida ishlatiladi.

„Nella lesicologia si distingue tra parola, lessema, lemma(voce) e termine pur bisogna ammettere che nel presente manuale (ed in molte opere linguistiche) tale differenziazione non e' sempre osservata“.¹

Ya'ni italyan tilida leksikologiya **so'z, leksema, lemema(ovoz)** hamda atama kai o'rganish obyektlaridan iborat. Shuni aytish joizki hozirgi tilshunoslikda, ko'plab yozuvchilarning asarlarida ham, turli tillarning tilshunosligidagi ham leksikologiya sohasining farqli jihatlari har doim ham ahamiyatga olinmaydi.

Shu jumladan, **Parole** (vocaboli) ya'ni so'z, italyan tilida frazalarni tashkil qiluvchi vosita sifatida o'rganiladi. **Lessemi** ya'ni leksemalar italyan tilida leksikalarning umumlashmasi sifatida o'rganiladi. Masalan, „*libro, tavolo, mela, bianco, pagina, nonno*“ va boshqalar.

Leksikografik nuqtayi nazardan qaralganda (ya'ni lug'atlarning yaratilish qoidasidan), leksemalar **lemmalar** bilan birgalikda yaratiladi ya'ni har bir leksemalarning ma'noviy izohlari lug'atlarda akslantiriladi. Leksikologiyani tashkil qiluvchi yana bir tarkibiy qism bu **termine** ya'ni tarminlar hisoblanadi. Ular tilda ma'lum bir sohaga, ilmga tegishli bo'lgan maxsus atamalar hisoblanadi. Bunday atamalar italyan tilida qotib qolgan holda o'rganiladi. Ularning lemma

¹ K. Garajova „Manualetto di stilistica“ Masaryakova univerzita Brno 2014 pag 7

(ya'ni ma'noviy izoh)lari ham keng ma'noda emas, balki qisqa, lo'nda hamda aniq tushunchalar bilan izohlanadi. Masalan, „*prisma, fotone, aorta*“ va boshqalar.

La semantica. Italyan tilida so'zlarning ma'no va mazmun jihatdan o'rganish, tadbiq qilish leksikologiyaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'lum bir yangi so'zning paydo bo'lishi va eski so'zning o'rnini egallashi jarayonida, ushbu so'zlarning orasida leksik, semantik, struktural hamda funksional o'zgarishlarni vujudga keltiradi. Bunday o'zgarishlar italyan tilida „**Il cambiamento semantico**“ (semantik o'zgarishlar) deb ataladi.

Italyan tilida semantic o'zgarishlar tilshunoslikda so'zlar bilan bog'liq quyidagi hodisalarning kelib chiqishiga olib keladi:

1. La polisemia – ko'p ma'nolik;
2. Omonimia – shakldoshlik;
3. Sinonimia – ma'nodoshlik;
4. Antonimia – zid ma'nolilik;
5. Intensita` - sifatlanish hamda darajalanish;
6. Collocazione – yangi so'zlarning o'rin egallashi;
7. Inclusione – umumiy nomlanish;
8. Connotazione – konnotativ ma'no kabilar.

Italyan tilida antonimiya hodisasi yuqorida keltirilgan leksik, semantik o'zgarishlarning asosiy turlaridan biri hisoblanadi.

Antonimia

Ma'lum bir matnda yoki kontekstda so'zlar bir-biri bilan ma'no va mazmun jihatdan munosabatga kirishadi. Italyan tilida bir-biriga qarama-qarshi hamda bir-birini rad etuvchi so'zlar „**contrari**“ yoki „**opposti**“ (qarama-qarshi so'zlar) deb ataladi. Masalan, „*alto – basso, brutto – bello, facile – difficile*“ va boshqalar.

Umumiy jihatda bunday qarama- qarshi so'zlar uch turga bo'linadi:

1. Antonimia;
2. Complementarita`;
3. Inversione.

Antonimi graduabili: indicano due punti estremi di una scala; ad esempio, „grande / piccolo, freddo / caldo“ ecc. Trattandosi di una scala si possono avere die gradi intermedi: „piu` freddo, molto freddo, poco freddo, ecc..,“ e per questo e` possibile che tra i due estremi di una scala ci siano termini intermedi specifici, come „tiepido, fresco, gelido“ (gradazione semantiche).

Antonimlar. Italyan tilida so‘zlarning qarama-qarshi ma’nolarini izohlash zinapoyaga qiyoslanadi. Ya’ni antonimlar bu zinapoyaning eng yuqori va eng quyi nuqtalari hisoblanadi. Masalan, „sovuq / issiq“. Bu zinapoyaning orasida o‘rtacha darajadagi ma’nolar ham mavjud bo‘lib ular maxsus qo‘shimcha so‘zlar bilan izohlanadi. Masalan, „juda sovuq, biroz sovuq, biroz issiq, juda issiq“ va boshqalar. Italyan tilida ham o‘rtacha darajadagi so‘zlarning boshqa tillar kabi maxsus leksemalari mavjud. Masalan, „tiepido – iliq, fresco – yaxtak, gelido – muz“ va boshqalar. Tilshunoslikda bu turdagi darajalanish xususiyatiga ega bo‘lgan antonimlar asliy antonimlar deb ataladi.

Complementari o antonimi bipolari: Complementari ya’ni nisbiy antonimlar italyan tilida bir-birini to‘ldirib turuvchi, biri ikkinchisiz mavjud bo‘la olmaydigan antonimlarga nisbatan aytiladi. Masalan, „vivo (tirik) – morto (o‘lik)“. Nutq jarayonida so‘zlovchi bunday antonimlarning o‘rtacha darajadagi sifatlarini akslantira olmaydi hamda bu turdagi antonimlar darajalanish xususiyatiga ega emas. Masalan, „molto morti – juda o‘lgan“ deb aytish noto‘g‘ri.

Inversi o conversi: Inversi ya’ni juftlashgan antonimlar semantik jihatdan bir xil munosabatga kirisha oladigan, ba’zi bir jihatlari bilan uyadosh so‘zlarga mansub bo‘lgan, ammo bir-birini rad etuvchi qarama-qarshi so‘zlarga nisbatan aytiladi. Ular ham nisbiy antonimlar singari darajalanish xususiyatiga ega emas. Masalan, „femmina – maschio (ayol – erkak), padre – madre (ota – ona), prima – dopo (avval – keyin), dare – ricevere (bermoq –olmoq)“ va boshqalar.

Italyan tilida antonimlar kelib chiqishiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi. Ular:

1. Antonimi lessicali (leksik antonimlar);
2. Antonimi grammaticali (grammatik antonimlar).

Antonimi lessicali. Til va nutqda asliy mavjud, semantik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlar leksik antonimlar deb ataladi. Masalan, „*bello – brutto* (chiroyli – xunuk), *amore – odio* (muhabbat – nafrat), *molto – poco* (ko'p – kam), *destra – sinistra* (o'ng – chap), *inizio – fine* (boshi – oxiri), *davvero – finta* (haqiqiy – yasama), *naturale – artificiale* (tabiiy – su'niy), *chiaro – scuro* (aniq – sirli), *pro – contro*, *domanda – risposta* (savol – javob), *tutto – niente* (hamma narsa – hech narsa), *vita – morte* (hayot – o'lim)“ va boshqalar.

„**Pace** (tinchlik) *non trovo e non ho da far guerra* (urush), *E temo e spero, et ardo* (alanga) *e son un ghiaccio* (muz)“ (Petrarca)

Antonimi grammaticali. Italyan tilida barcha antonimlar ham asliy yaratilmagan bo'lib, ba'zi turdagi antonimlar leksemalarga qo'shimchalar qo'shilishi natijasida vujudga kelgan. Bunday antonimlar tildagi boshqa so'z turkumlaridan antonimlar hosil qilish deb ham ataladi. Masalan, „*volontario – involontario* (ixtiyoriy – majburan), *legale – illegale* (qonuniy – noqonuniy)“ va boshqalar. O'z navbatida, qo'shimchalar yordamida antonimlar hosil qilish ya'ni morfologik usul bir-biriga qarama-qarshi bo'lmagan leksemalardan antonimlar yaratish uchun xizmat qiladi. Bu jarayonda asosan quyidagi qo'shimchalar ishtirok etadi: **in-, dis-, s-**. Masalan, *completo – incompleto* (to'liq – qisman), *onesto – disonesto* (haqqo'y – yolg'onchi), *comodo – scomodo* (qulay – noqulay) va boshqalar. Ba'zi hollarda **a-, extra-, inter-, ultra-, sotto-, sopra-, bene-, male-** qo'shimchalari yordamida ham antonimlar yasash mumkin. Ammo bunday morfologik qo'shimchalar bilan antonim yasash barcha so'zlar uchun xos emas, balki ba'zi so'zlarning o'ziga xos qo'shimchalari mavjud. Masalan, „*vestire*“ so'zining antonimi *in-* qo'shimchasi yordamida „*investire*“ shaklida so'z yasaladi. Antonimlardagi yana bir ahamiyatli holat bu **enantiosemiya** hodisasi hisoblanadi. Bu hodisa omonim so'zlar o'rtasidagi antonimlik va qarama-qarshi semantik munosabatlarga nisbatan aytiladi. Bunday so'zlar leksema shaklida bir xil ma'no anglatib, gapning ichida qarama-qarshi zid ma'nolarni akslantiradi. Masalan, „*alta montagna*“ – *baland tog'*, „*alto mare*“ – *chuqur dengiz*“ degan birikmalarda „*alto*“ leksemasi ikki xil semantik munosabatni ifodalagan.

Italyan tilida antonimlar hosil qilishning quyidagi usullari mavjud:

In – **in**+**M/P/B**=**Im**; **In**+**L**=**Il**; **In**+**R**=**Ir** – utile-inutile, mangiabile-immangiabile, legale-illegale, regole-irregole, dipendenza-indipendenza, potenza-impotenza, logica-illogica, responsabilita'-irresponsabilita';

S – contento-scontento, favorevole-sfavorevole, cortesia-scortesia, fortuna-sfortuna, montare-smontare, caricare-scaricare;

Dis – armante-disarmante, ordinato-disordinato, attenzione-disattenzione, aggio-disaggio, fare-disfare, approvare-disapprovare;

De – geminabile-degeminabile, cifrazione-decifrazione, duzione-deduzione, cordificare-decordificare, colorare-decolorare;

Senza – tetto-senzatetto, dio-senzadio;

A/ An – normale-anormale, abbagliante-anabbagliante;

Non – curante-noncurante, vedente-non vedente, senso-nonsense, violenza-non violenza.¹

Yuqrida keltirilgan soʻzlar sostantivo(ot), aggettivo(sifat) hamda verbo(feʼl) soʻz turkumlariga qoʻshimchalar qoʻshilish natijasida inkor, qarama-qarshi, zid maʼnoli soʻzlar hosil boʻlgan.

Italyan tilida oʻzaro qarama-qarshi boʻlmagan soʻzlar ham gapda antonim sifatida ishlatilishi mumkin. Bu xildagi munosabat gap mazmunining voqealar rivoji, makon, zamoniga bogʻliq holda yaratiladi. Masalan, „*militare – civile, monarchia – repubblica*“ kabi soʻzlar aslida ot soʻz turkumiga mansub, alohida maʼno ifodalaydigan, bir-biriga qarama-qarshi boʻlmagan soʻzlar hisoblanadi.

2.2. Antonimlar tasviriy ifoda vositasi sifatida

Tilshunoslikning eng muhim boʻlimlaridan biri bu frazeologiya hisoblanadi. Frazeologiya gap hamda soʻz birikmalarining semantik jihatdan konnotativ maʼnosini oʻrganadigan soha hisoblanadi. Shu jumladan italyan tilida gapning maʼnosi muhim obyektlardan biri sanaladi.

Il significato. Il significato(maʼno) maʼlum bir soʻz hamda soʻz birikmalaridan tashkil topgan frazalardan kelib chiqqan maʼno-munosabatdir.

¹ A.N.Nguyen. *Formazione delle parole in italiano*. - Ta TAT: 2003. 6 pag

Tilshunoslikda bunday ma'no-munosabat semasiologiyada o'rganiladi. Gap ma'nosi ikkiga bo'linadi:

1. Il significato grammaticale(grammarik ma'no);
2. Il significato lessicale(leksik ma'no).

Il significato grammaticale. Gaplardagi o'zaro grammatik ma'no-munosabatlarni ifodalaydi.

Il significato lessicale. Gapning leksik, semantik, struktural jihatdan bildiradigan ma'no-munosabatni ifodalaydi. O'z navbatida leksik ma'no ikkiga bo'linadi:

1. Il significato dennotativo(dennotativ ma'no, bosh ma'no);
2. Il significato connotativo(konnotativ ma'no, ko'chma ma'no).

Il significato dennotativo – gapning bosh ma'nosi bo'lib, leksemalar lug'atda qanday ma'no anglatga, gapda o'z ma'nosini o'zgartirmasdan so'z sifatida ishtirok etishidir. Masalan, „*tavolo – e` un pezzo del mobile che consiste della parte piatta con 4 piedi*“. Ya'ni „*stol – uy jihozlaridan biri bo'lib, 4 oyoqdan tashkil topgan, ovqatlanish jihozi hisoblanadi*“. O'z ma'nosini yo'qotmagan bunday so'zlar gapda va tarjimada so'zma-so'z tarjima qilinganda qiyinchiliklarga uchramaydi.

Il significato connotativo – bunday ma'no-munosabatda so'zning o'z leksik ma'nosidan tashqari, gapda uni o'rab turgan atrof-muhit, holat, sifat, tushuncha, aynan ma'no o'sha so'z ustida bog'liq bo'lgan hodisa va narsalarga nisbatan yuzaga keladi. Bunday ma'no tilda asosan mavhum otlarga nisbatan ishlatiladi. Ya'ni ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan otlar gapda turli xildagi ma'nolarda ishlatiladi. Masalan, „*dicembre*“ – dekabr: sovuq, qish, oy, temperatura, vaqt, holat va boshqa ma'nolarni o'z ichiga oladi. Konnotativ ma'no-munosabatning yana bir yorqin ifodasi bu polisemantik so'zlardir. Polisemantik so'zlar tilshunoslikning polisemiya sohasida o'rganiladi.

Polisemia (dal greco „*polys*“ - molto(ko'p), „*semion*“ – signifiko(ma'no)) gapda ishlatiladigan so'zlarning markaziy ma'nolaridan tashqari gap bo'laklari tarkibida turli xildagi ma'no-munosabatlarni ifodalashidir.

Masalan, italyan tilidagi „*passare*“ fe’li gaplarda turli xil ma’nolarda ishlatiladi:

- Il ladro *passa* per finestra – „penetra, attraversa“ (derazadan chiqmoq);
- Mario *passa* a casa di Pietro – „va“ (bormoq);
- La pasta *passa* di cottura – „eccede il giusto limite“ (maza-ta’mining anglatilishi);
- L’alunno *passa* un esame – „e’ promosso“ (imtihon topshirmoq);
- Il tempo *passa* – „trascorre“ (vaqtning o’tishi);
- Il raffreddore *passa* – „finisce“ (tugamoq);
- La spada lo *passa* da parte a parte „trafigge“ – (harakatlanmoq) kabi ma’nolarda ishlatiladi.

Antonimiya hodisasi aynan polisemantik so’zlar orasida ham yuzaga keladi. Bunday so’zlar dennotativ ma’no jihatidan o’zaro qarama-qarshi bo’lmasdan, gap ichida konnotativ munosabatda o’zaro antonimlarga aylanishadi.

Italyan tilida konnotativ ma’no jihatidan frazeologizmlar hamda iboraviy birikmalar o’rtasida ham antonimiya hodisasi yuzaga kelib, asosan frazeologik birliklar bilan semantik munosabatdagi so’zlar bir-biriga antonim bo’ladi. Masalan, „*piangere il cuore*“(yurakdan yig’lamoq), „*ridere di cuore*“(yurakdan kulmoq) iboralari bir-biriga antonim hisoblanadi. Italyan tilida asosan **fraseologismi**(frazeologik birliklar) hamda **modi di dire**(iboraviy birikmalar) bir-biriga antonim bo’la oladi. Masalan:

- „*nel cuore della citta`*“(shahar markazi) - „*fuore della citta`*“(shahar tashqarisi);
- „*con tutto il cuore*“(butun yuragi bilan) – *cosi`-cosi`*(shunchaki);
- „*meglio un uovo oggi che una gallina domani*“(ertaga tovuq bo’lib ulg’ayguncha bugun tuxum bo’lgani afzal) – „*gallina vechchia fa buon brodo*“(qari tovuqdan yaxshi taom chiqadi);
- „*chi tardi arriva, male alloggia*“(kech kelganga, yaxshi uy qolmaydi) - „*meglio tardi che mai*“(hechdan ko’ra kech yaxshi);

- „*la loro vita e` una vera cuccagna*“ (hayot beshafqat) – „*quando si va a morire, ogni momento e` caro*“ (o‘lim haq, fursat g‘animat);

- „*le parole volano, cio` che e` scritto rimane*“ (gap egasini topadi) – „*parlare all’aria*“ (devorga gapirmmoq);

- „*avere fegato*“ (qo‘rqmas, dovyurak, kuchli bo‘lmoq) – „*andare in oca*“ (xayolparishon, narsa-hodisalarni tez unutuvchan) kabi frazeologik birliklarning antonim variantlari mavjud. Boshqa tillar singari italyan tili ham frazeologik birikmalar, maqollar hamda tasviriy ifodalarga boy til hisoblanadi. Bunday tasviriy ifodalar tizimi asosan tilning so‘zlashuv hamda badiiy uslublariga xosdir. Italyan tilida frazeologik birliklar asosan semantik so‘z birikmalari bilan bir-biriga nisbatan antonimik munosabatga kirisha oladi. Masalan,

- „*abbaiare alla luna*“ (befoyda ish bilan shug‘ullanmoq) – „*fare le cose utile*“ (foydali ish qilmoq);

- „*avere la luna*“ (jahli chiqmoq) – „*tranquillizzare*“ (tinchlanmoq);

- „*avere fegato*“ (qo‘rqmas, dovyurak, kuchli bo‘lmoq) – „*avere paura*“ (qo‘rqmoq);

- „*alla carlona*“ (e’tiborsiz) – „*con attenzione*“ (e’tiborli);

- „*acca*“ (hech narsa) – „*tutto*“ (hamma narsa);

- „*acqua in bocca*“ (o‘gzigga talqon solmoq, jim turmoq) – „*chiacchiare, dire il segreto*“ (gapirmoq, sirni aytmoq) va boshqalar.

Ular tildan tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri, so‘zma-so‘z tarjima qilinmaydi. Agar so‘zma-so‘z tarjima qilinsa ularning semantik xususiyatlari yo‘qoladi va kontekstda boshqa bir ma‘noni ifodalaydi. Tarjimon frazeologik birliklarni tarjima qilish jarayonida tarjima qilayotgan asar ya‘ni asliyatni har tomonlama tadqiq qilishi lozim. Mahoratli tarjimon o‘z faoliyati jarayonida nafaqat leksik, morfologik, grammatik, sintaktik jihatlarini inobatga oladi, balki tarjima qilinayotgan asarning asl mazmuni, yozishdan maqsadi, dolzarbligi, muhim muammolari hamda o‘sha tilga mansub xalqning etnik jihatlarini tahlil qiladi. Masalan, „*abbaiare alla luna*“ iborasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda

abbaiare – vovullamoq(itga xos);

alla – artiklli predlog sifatida (-ga, qarab);

luna – oy(planeta) va „oyga qarab vovullamoq“ ma’nosini ifodalaydi.

Aytish joizki, barcha antonimik iboralar hamda semantik soʻzlarning tarjima ekvivalentida frazeologik munosabat mavjud emas. Bu koʻrinishdagi iboralar faqatgina italyan tilida frazeologik ibora sifatida oʻrganilib oʻzbek tili yoki boshqa tillarda ularning aniq bir frazeologik jihatdan ekvivalentining borligi xalqlar oʻrtasidagi etnik hamda madaniy jihatlariga bogʻliq. Ularning semantik xususiyatlarini **definizione**(izohli gaplar) orqali bilish mumkin. Izohli gaplar italyan tili lugʻatlarida aniq va tushunarli tarzda keltirilgan. Masalan, „*avere la memoria dell’elefante*“ – *ricordarsi a lungo di un torto subito, traendone vendetta a grande distanza di tempo*(„xotirasi kuchli“ – ancha uzoq vaqt oldin sodir boʻlgan narsa-hodisalarni tezda esga keltiradigan).

Har bir til doirasida ma’lum bir frazeologik birliklarning kelib chiqishi ularning madaniyati, urf-odatlari, tarixiy afsonalari va mentalitetiga bogʻliq. Shu jumladan italyan tilidagi bunday antonimik iboralarning kelib chiqish asosi ularning etnik rivoyatlari, afsonalari hamda tarixiga borib taqaladi. Italyan tili qadimgi lotin tilidan kelib chiqqanligi sababli frazeologik birliklarning asosiy qismi lotin tilidan olingan turgʻun birikmalar tarzida yetib kelgan. Lotin tilining italyan tiliga aylanish jarayonida tilda koʻpgina oʻzgarishlar sodir boʻlgan, ammo xalqning folklor nutqi(xalq ogʻzaki ijodi) boʻlmish ba’zi bir turgʻun birikmalar hozirgacha tilshunoslar tomonidan oʻzgartirishlarsiz qotib qolgan tarzda oʻrganilib kelmoqda. Masalan, „*ad maio`ra*“ - *a cose piu` grande*(juda katta); „*ad li`bitum*“ – *a piacere, a volonta*(xohish bilan)

Italyan tilida bundan tashqari koʻplab iboralar, didaktik ruhdagi pand nasihatlar mavjud:

- „*Non serve piangere sul latte versato*“ – oʻtgan ishga salovat;
- „*Le disgrazie non vengonomai sole*“ – baxtsizlik yolgʻiz kelmaydi;
- „*La vechchiaia e` una grave soma*“ – qarisi bor uyning parisi bor;
- „*La morte e` una cosa che non si puo` fare due volte*“ – oʻlim bir marta keladi;

- „*Gallina che canta ha fatto l'uovo*“ – shamol bo‘lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi;
- „*Il tempo e` un gran dottore*“ – vaqt oliy hakam;
- „*Lupus in fabulas*“ – bo‘rini yo‘qlasang qulog‘i ko‘rinadi;
- „*La montagna ha partorito un topo*“ – xuro‘z tuxum qo‘yganda;
- „*La migliore parola e` quella che non si dice*“ – eng yaxshi so‘z sukut;
- „*Chi assai ciarla spesso farla*“ – kam gapirsang, dono bo‘lasan;
- „*Qual proposta tal risposta*“ – salomga yarasha alik;
- „*Repetitio est mater studiorum*“ – takrorlash bilimlar onasi;
- „*Tra l'odio e l'amore il passo e` breve*“ – nafrat bilan muhabbat orasi bir qadam va boshqalar.
- „*Salutare e` cortesia, rendere il saluto e` obbligo*“ – salom berish farz, salomga alik olish qarz;
- „*ride ben che ride ultimo*“ (yaxshi ot keyin chopadi);
- „*Chi prestata il libro ad un amico, perde il libro e l'amico*“ – hisobli do‘st ayrilmas.

Bunday birikmalar asosan badiiy adabiyotda yozuvchi va shoirlar tomonidan ishlatilib, nutqning hamda badiiylikning ta’sirchanligi, kishiga emotsional ruh bag‘ishlashishi uchun xizmat qiladi.

2.3. Antonimlarda badiiy bo‘yoqdorlikning farqlanishi

Tilshunoslikda antonimiya hodisasi nafaqat og‘zaki nutqda, balki badiiy adabiyotda ham ahamiyatli o‘ringa ega. Barcha tilshunos olimlar adabiyotni tilshunoslik bilan birgalikda tadqiq qilishadi. Ayni paytda „adabiyot“ atamasi keng hamda tor ma’noda qo‘llaniladigan tushuncha hisoblanadi. Adabiyotning keng ma’nodagi talqini inson paydo bo‘lganidan hanuzgacha dunyoda yozilgan barcha qo‘lyozmalar, kitoblar, asarlar, matbuotda yoziladigan maqolalar hamda ularning o‘rganilishi tushuniladi. Turli xalqlarda turli xilda talqin qilinadigan adabiyot tushunchasi tor ma’noda XVIII-XIX asrlardan boshlab qo‘llanila boshlangan. Aynan bir xalqqa tegishli bo‘lgan adabiyot tor ma’nodagi adabiyot sanaladi. Adabiyot ya’ni rus tilida „литература“, italyan tilida “letteratura”, fransuz tilida

“litterature” atamasi “leter” – “harf” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, so‘z san’ati hisoblanadi. „Adabiyot“ atamasi badiiy so‘z san’atida axloqiy-ta’limiy masalalar keng yoritilishi, inson odobiga oid fikrlar ilgari surilishi bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.¹

Adabiyotshunoslikning tadqiq qilinishi jihatidan o‘ziga xos o‘rganish obyektlariga mavjud. Ular: badiiylik, obrazlilik, tipiklashtirish, milliylik, xalqchillik, umuminsoniylik, mazmun, g‘oya, shakl, syujet, kompozitsiya, janr, struktura, uslub, adabiy oqim kabilardir.

Badiiylik

Adabiyotning eng muhim jihati uning badiiyligidadir. Badiiylik deb, adabiyotda yoritilgan iste’dod, yuksak mahorat, an’anaviylik, ta’sirchanlik hamda islohot natijasida yaratilgan yangiliklarning uyg‘unligiga aytiladi. Har bir asar o‘zining adabiy janri, mazmun-mohiyati, mavzusi, yoritilgan muammolari, yozilish uslubidan qat’iy nazar muallif tomonidan badiiy ruhda yaratiladi. Shu jumladan, italyan tilida yozilgan adabiy asarlar ham badiiylikni o‘zida mujassam etgan. Badiiylikning yorqin ko‘rinishi badiiy san’atlarning ishlatilishidadir. Boshqa xalq adabiyotlari singari italyan adabiy asarlari badiiy san’atga xos adabiyot sanaladi. Italyan tilida badiiy san’atlar „**le figure retoriche**“ deb ataladi.

Figure retoriche(badiiy tasviriyy vositalar) badiiy adabiyotda asar yaratish uchun asosan yozuvchi, mualliflar qo‘llaydigan texnik vositalar bo‘lib, asar yaratuvchining shaxsiy g‘oya va fikrlarini o‘ziga xos bo‘yoqdorlik bilan metaforik usulda izhor qilish uchun ishlatiladi.

Italyan adabiyotida badiiy tasviriyy vositalar ishlatilish mohiyatiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi:

1. Figure retoriche di parola;
2. Figure retoriche di pensiero;
3. Figure retoriche di sintassi;
4. Figure retoriche di ritmo.

¹Xudoyberdiyev. E .Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya 2007 yil 22 bet

Figure retoriche di parola. Badiiy tasviriyl vositalarda soʻz muhim ahamiyatga ega boʻlib, iboralar, tasviriyl ifodalar asosan quyidagi oʻxshatish sanʼatlari orqali namoyon boʻladi.

1. Allegoria – majoziy oʻxshatish;
2. Analogia – italyan tilida „parere, sembrare“ vositalari yordamida oʻxshatish;
3. Antifrazi – kinoyali tasviriyl ifodalar;
4. Eufemizmo – koʻngilni yumshatuvchi frazeologik birliklar;
5. Ironia – kinoyali, boʻrtma maqtov;
6. Antonomasia – qayta nomlash;
7. Esagerazione – boʻrtirish;
8. Litote – ironik mazmunda gapirish;
9. Metafora – obrazlarni toʻgʻridan-toʻgʻri oʻxshatish;
10. Metonimia – otlarning mazmunan qayta nomlanishi;
11. Sarcazmo – kuchli ironik munosabat;
12. Similitudine – taqqoslash;
13. Sineddoche – qism orqali butunni ifodalash;
14. Uморismo – ironik munosabat kabilarni ifodalaydi.

Figure retoriche di pensiero(fikrni ifodalovchi tasviriyl ifodalar). Ushbu turdagi tasviriyl ifodalar quyidagi sanʼatlardan iborat:

1. Antitesi – maʼno kuchaytirish uchun;
2. Epifonema – his-hayajonli ifodalar;
3. Ossimoro – jonlilikning kuchaytirilishi;
4. Perifraze – qochirma gaplar;
5. Repitizione – taʼsirchanlikni oshirish;
6. Climax – darajalanish uchun xizmat qiladigan vositalardir.

Figure retoriche di sintassi(frazalar ahamiyatliligi). Quyidagi sanʼatlardan iborat:

1. Anafora – sheʼriyl misralarda davomiy mazmun;
2. Chiasmo – sheʼriyl misralarda maʼnoni kuchaytirish uchun strukturaviyl oʻrin almashish;

3. Elissi – ta'kidlash uchun fe'lining qisqartirilishi;
4. Zeugma – gapda bir nechta otlar birlashib, ma'lum bir fe'l bilan birgalikda qo'llanilishi.

Figure retoriche di ritmo(ohangli badiiy tasviriy vositalar):

1. Alliterazione – ma'lum bir tovushning she'riy misralarda ohangli tarzda, so'zlarning tarkibida takrorlanishi.
2. Armonia(uyg'unlik) – asarlarda tabiiy hodisotlarning ovoz-shovqinlariga taqlid.

Antonimiya hodisasi badiiy adabiyotda qayd qilingan badiiy san'atlar talqinida namoyon bo'ladi. Badiiy asarlarda zid ma'noli so'zlar mazmun-mohiyat ma'lum bir maqsadlarga ko'ra qo'llaniladi. Italyan adabiyotida ular asosan fikrni ifodalovchi tasviriy vositalarda qo'llanilib gaplarning emotsionallik xususiyatini oshiradi. Kitobxon asarni o'qish jarayonida antonimik ifodalar ta'sirida obrazlarni ruhan his qiladi, shaxsan asar qahramoni sifatida obrazlar tarkibida ishtirok etadi. Italyan adabiyotida antonimik tasviriy vositalar quyidagilar:

- Antifrase;
- Antitesi;
- Ossimoro;
- Climax.

Antifrase

Antifrase(ironia) dal greco *antiphrazis* – cioe` contro frase detta in tono ironico. Ushbu taviriy vosita kinoyali shakl va ohangdagi frazalarda qo'llanilib, gapning mazmuni asl mohiyatiga nisbatan qarshiligini ifodalaydi. Antifrasalarda antonimiya hodisasi gaplarning strukturaviy ko'rinishlarida yaqqol ko'rinmaydi, balki o'zaro qarama-qarshilik asl mazmun hamda ifodalangan gap o'rtasida namoyon bo'ladi. Masalan, „*L'hai picchiato a sangue, ma come sei **bravo(violente)**!*“ – „qoni chiqquncha urding-a, qanday zo'rsan!“. Aslida „bravo“(zo'r) iborasi o'rnida „violente“(vaxshiy) so'zi ishlatilishi lozim.

Italyan badiiy adabiyotida bunday kinoyali, zid ma'nodagi ifodalar ko'p uchraydi.

Antitesi

L'antitesi si ha quando si avvicinano parole esprimenti concetti contrari per dare maggior risalto all'espressione. Ya'ni antitesi asarda mohiyatan ma'lum bir frazalarda ma'noni kuchaytirish maqsadida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlarning ishlatilishidir. Masalan, „*Pace non trovo, e non ho da far guerra e temo, e spero, ed ardo e sono un ghiaccio*“ – tinchlikni topolmayman ammo urushishga sabab yo'q, qo'rqaman, o'ylab, otash bo'lib yonaman lekin aslida muzman. Antitesi qo'llanilgan ushbu qo'shma gapda ikki marta zid ma'noli birliklar ishlatilgan bo'lib, ular „pace“(tinchlik) – „guerra“(urush), „ardo“(otash) – ghiaccio(muz). Grammatik hamda sintaktik jihatdan ot va sifat so'z turkumlariga oid antonimlar qo'llanilib, ular gapda asar qahramonining ruhiyati, hissiyoti, ichki kechinmalarini namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etgan. „*Per Lavilledieu, come per tante altre citta` che fondavano la propria ricchezza sulla produzione della seta`, quell'anno sembro` rappresentare l'inizio della fine*“¹ – „Lavilledieu yilning boshidan oxirigacha boshqa ipak sanoatidan boylik ortirayotgan shaharlar singari bu yerda ham shu alfozdagi faoliyatning guvohi bo'ldi“. Mashhur italyan yozuvchilaridan biri Alessandro Baricconing „Seta“(Ipak) nomli asaridan olingan ushbu parchada yozuvchi mazmunni ochib berish va ma'noni kuchaytirish maqsadida „inizio“(boshi) hamda „fine“(oxiri) kabi antonim so'zlardan foydalangan.

Badiiy asarlarda antitesi qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri antonim bo'lib ishlatilgan ifodalar leksik birliklar ya'ni leksemalardan tashkil topganligidadir. Leksemalar badiiy asarlarda ishlatilib, antonimik xususiyatli so'zlarga aylangan. Antitesi hodisasida gaplar, frazeologik birliklar, so'z birikmalari orasida yoki so'z va mazmun o'rtasida antonimlik hodisasi kuzatilmaydi. Yuqorida keltirilgan misollar ham shular jumlasidandir.

¹ Baricco A. Seta`. -Italy : Allestimenti Grafici Sud Via Cancelliera 46, Ariccia RM, 1996. –P. 11

Ossimoro

Ossimoro e` una forma di antitesi si mettono insieme parole di significato contrario per dare maggior vivezza al discorso. Ya'ni ossimoro adabiyotda muhim ahamiyatga ega bo'lgan tasviriy ifodalardan biri bo'lib, asarda ko'proq jonlilik keltirish uchun antonim so'zlarning ishlatilishidir. Qo'llanilish jihatidan antitesiga o'xshash ammo, ossimoroda jonlilik va obrazlilik ko'proq talqin qilinadi. Tahlil qilish jarayonida ossimoroni matnga antitesiga nisbatan kuchliroq ta'sir ko'rsatayotganligi, ma'no-mazmun jihatidan matnni boyitayotganligi orqali farqlash mumkin. Masalan, „*un **silenzio** e lo **quento***“ – „sukunat va shovqin“, „*un nome **lungo** e **breve***“ – „uzun va qisqa nomlar“.

„***Comprando e vendendo** bachi da seta`, Herve` Joncour guadagnava ogni anno un cifra sufficiente per assicurare a se e a sua moglie quelle comodita` che in provincia si e` inclini a considerare lussi...*“¹

Matnda qo'llanilgan „comprando“(comprare-sotib olmoq) hamda „vendendo“(vendere-sotmoq) so'zlari asar qahramonining qaysi kasb bilan shug'ullanishini yaqqol ko'rsatib bergan. Ya'ni bu ossimoro asarda ahamiyatsiz emas. Yozuvchi obrazning sifatlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatmay, asarning emotsionalligini oshirish, oddiylkdan qochib, badiiy uslubiyatni yaratish maqsadida ushbu tasviriy ifodadan foydalangan.

Climax

Climax yunoncha so'zdan olingan bo'lib, „scala“(zinapoya) ya'ni darajalanish degan ma'noni ifodalaydi. Gradazione(darajalanish) ma'lum bir voqea-hodisa, sifatlarning bosqichma-bosqich balandlik yoki pastlik yo'nalishlari tomon ifodalanishidir. Darajalanayotgan birliklarning yo'nalishlariga ko'ra climax ikki guruhga bo'linadi va aynan shu guruhlar talqinida antonimiya hodisasi vujudga keladi. Ular quyidagilar:

1. Climax ascendente(o'sib boruvchi);
2. Climax discendente o anticlimax(pasayuvchi).

Climax ascendente mazmunan darajalanishning bir tartibda o'sib borishidir.

¹ Baricco A. *Seta`.-Italy : Allestimenti Grafici Sud Via Cancelliera 46, Ariccia RM, 1996. –P. 10.*

Masalan, „*Il gatto era salito sul davanzale della finestra, aveva aperto gli occhi di fuoco, le zampe allargate, gli artigli a vista aveva afferrato la patente, mordeva, tirava, strappava.*“ – ya’ni ma’lum bir mushukning harakati ko’rsatilib, darajalanish oddiy harakatlardan boshlanib, kulminatsion nuqtagacha davom etilgan faoliyatlar ko’rsatilgan. „*noi siamo usciti fore del maggior corpo al ciel che` pura luce intellettuale, piena d’amore, amor di vero ben, pien di letizia; letizia che trascende ogne dolore*“. Ushbu parcha mashhur yozuvchilardan biri Dantening „Divina commedia,“(Ilohiy komediya) nomli asaridan olingan. Insoniyat yashayotgan borliq olamdan keyingi hayot haqida hikoya qiladi. Ushbu frazada qadamba-qadam insonning jannat tomon yo’l olishi yoritib berilgan.

Climax discendente mazmun jihatdan darajalanish pasayishini ifodalaydigan gaplarga nisbatan aytiladi: „*diverse lingue, orribili fevelle, parole di dolore, accenti d’ira, voci alte e fioche, e suon di man con elle*“ ya’ni. Ushbu gap ham „Ilohiy komediya“ asaridan olingan bo’lib yuqoridagi frazadan farqli ravishda ushbu kontekstda do’zaxning hodisotlari tasvirlangan. Antonimiya hodisasi antitezi, ossimorodan farqli ravishda ma’lum bir gapli ifodalar o’rtasida vujudga kelgan. „*paradiso*“(jannat) hamda „*inferno*“(do’zax) bir-biriga qarama-qarshi so’z bo’lib, ularga tegishli frazalar ham antonimiya hodisasini namoyon qilgan.

Antonimiya hodisasi italyan tili va adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo’lib, nutqning boyishi uchun xizmat qiladi.

II bob bo'yicha xulosa

Tilshunoslik insoniyat faoliyat olib boradigan sohalar ichida eng serqirra, dolzarb hamda ichki xususiyatlarga boy sohalardan biri bo'lib, tillar orasida qaysi til bo'lishidan qat'iy nazar har bir tilning o'ziga xos hamda o'ziga mos sifatlari mavjud. Shu jumladan italyan tilining ham o'ziga xos o'rganish obyekti, predmeti, umumiy va xususiy jihatlari hamda til doirasidagi bir-biridan farqli sohalari mavjud. Bitiruv malakaviy ishda tadqiq qilinayotgan mavzu aynan italyan tilining eng murakkab sohalaridan biri bo'lmish leksikologiyaning tarkibiy qismlaridan biri hisoblangan antonimiya hodisasidir.

Dunyo tillari singari italyan tilida ham so'zlar o'rtasida ma'no munosabatlar mavjud. Sinonimiya, antonimiya, polisemiya, omonimiya kabilar shular jumlasidandir. Italyan tilida ma'no munosabatga ko'ra bir-biriga qarama-qarshi, zid, teskari bo'lgan so'zlar antonimlar sanaladi hamda ular tilshunoslikning leksikologiya bo'limida o'rganiladi. Quyidagi bobda italyan tilshunosligining „leksicologia, linguistica, sinonimia, antonimia, omonimia, polisemia, il significato, letteratura, ossimoro, antitesi, antifrasi, climax, fraseologia, modi di dire, antonimi lessicale, antonimi grammaticale“ kabi antonimiya hodisasiga xos bo'lgan o'rganish obyektlar tadqiq qilindi.

Tadqiq qilingan ish natijasida italyan tilida antonimlar nafaqat so'zlashuv nutqida, balki italyan badiiy adabiyotidan, ko'chma frazeologik birliklar o'rtasida ham muhim ahamiyat kasb etishi isbotlandi. Aytish joizki mashhur italyan yozuvchilari o'zlarining nodir asarlarida antonim munosabatdagi so'z hamda birliklardan keng munosabatda foydalanishgan. Alessandro Baricco, Niccolo Ammaniti, Natalia Ginzburg, Umberto Eco, Leonardo Sciascia, Bocaccio, Dante kabi yozuvchi shoirlar shular jumlasidandir.

Xalq orasida o'zining kuchli emotsional ta'siriga ega bo'lgan ibora hamda ko'chma ma'nodagi frazeologik birliklar orasida ham antonimiya hodisasi mavjud bo'lib, ular so'zlashuv nutqida ham, badiiy adabiyotda ham fikrni aniq ma'noda yetkazib berish uchun xizmat ko'rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, mukammal tajribaga ega bo‘lmagan yosh tilshunoslarning italyan tilini o‘rganish jarayonida so‘zlar va ularning ma’no munosabatga ko‘ra turlanishi shu jumladan antonimiya hodisasiga alohida e’tibor bilan yondashishi muhim ahamiyatga ega.

III bob

Italyan va o'zbek tillarida antonimiya hodisasining o'zaro farqli va o'xshash jihatlar

3.1. O'zbek tilida antonimlarning klassifikatsiyasi

Jamiyat va xalqning moddiy va ma'naviy boyligi uning so'z boyligidan yaqqol namoyon bo'ladi. Shu jumladan, o'zbek tilining lug'at boyligi to'g'risida tilshunos olimlar turlicha fikr bildirishadi. Tadqiq jarayonida tilshunos R. Abdurahmonov 80 ming so'z borligini aniqlasa, tilshunos E. Fozilov o'zbek tilining 100-200 mingga yaqin lug'at boyligini aniqladi. O'zbek tilining lug'at boyligi xalq ishlatadigan so'zlar, har bir shevalarning lug'at boyligi, boshqa tildan kirib kelgan, skirga, yangi paydo bo'lgan hamda lug'atlarda qayd qilingan so'zlar umumiy jihatdan tekshirilsa ularning soni 200 mingdan kam bo'lmaydi.

Ammo tilning boyligi lug'atlar tarkibidagi so'zlar miqdori bilan belgilanmaydi, balki ushbu so'zlarning ma'no munosabatlari, imkoniyatlari, til doirasida qo'llanilishi kabi jihatlar alohida e'tiborga olinadi.

O'zbek tilining eng muhim o'rganish obyektlaridan biri bu so'zlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlaridir. O'zbek tilida so'zlar, ularning qo'llanishi, o'ziga xos xususiyatlari, imkoniyatlari va ularning tilshunoslikda tutgan o'rni leksikologiyada o'rganiladi. O'zbek tilida so'zlar ishlatilish jihatidan bir yoki ko'p ma'noda ishlatilishi mumkin. Bir xil ya'ni denotativ ma'noda asosan til doirasida ishlatiladigan atamalar qo'llaniladi. Masalan, elektron, yadro, malekula, formula va boshqalar. Ammo ba'zi hollarda ma'lum bir atama qo'llanilish sohasiga qarab turli xil ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Masalan, operatsiya so'zi tibbiyotda jarrohlik ma'nosida, harbiy ishda biror bir harbiy harakat ma'nosida, moliyada pul muomalasi, texnikada esa texnik jarayonlarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

O'zbek tilida so'zlarning ko'chma ma'noda ishlatilishi **polisemiya** deb ataladi. Ya'ni so'zlarning kontekst ichida o'z ma'nosidan tashqari boshqa turli xildagi ma'nolarda qo'llanilishidir. Masalan, „ko'z“ – inson tana a'zosi(o'z ma'nosida);

„ko‘z“ – ishning ko‘zi, biror birnarsani ko‘zlab ish tutish, daraxtning ko‘zi(ko‘chma ma’nolarda).

Omonimlar ham so‘zlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan biri bo‘lib, bunday so‘zlar polisemantik munosabatdagi so‘zlarga o‘xshash bo‘ladi. Ammo omonim so‘zlar orasida polisemantik so‘zlardan farqli ravishda ma’nolar o‘rtasida yaqinlik, bog‘liqlik, vazifadoshlik xususiyatlari mavjud bo‘lmaydi va ular grammatik jihatdan turli so‘z turkumlariga mansub bo‘lgan so‘zlardan tashkil topadi. Masalan, „olma“ – daraxt mevasi; „olma“ – olmoq fe‘lining bo‘lishsiz shakli III shaxsga nisbatan buyruq mayli. Polisemantik so‘zlar hamda omonim so‘zlar nafaqat so‘zlashuv, publististik uslublarda, balki badiiy adabiyotda ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, yozuvchi va shoirlar o‘z asarlarida ulardan foydalanishadi.

O‘zbek badiiy adabiyotida yozuvchilar kontekst va dialoglarda foydalanishsa, she’riyatda shoirlar bunday so‘zlar yordamida tuyuq janrini yaratishgan. Masalan,

*Yo rab, ul shaxdu shakar yo **labdurur**?*

*Yo magar shxdu shakar yo **labdurur**?*

Jonima payvasta novak otqali

*G‘amza o‘qin qoshiga **yolabdurur**.*

(Alisher Navoiy)

Sinonimlar so‘zlarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlaridan biri bo‘lib, ular shakli har xil, ma’no jihatdan bir-biriga yaqin, umumiy o‘xshashlikka ega bo‘lgan so‘zlar hisoblanadi. Masalan, „chiroyli, go‘zal, orasta“. Har bir sinonim so‘z ma’lum bir uslubiy ma’no mazmunni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, „kesatish“ – biror ish-harakat yoki ma’lum bir so‘z bilan norozilikni ifodalash, masxara qilish uchun ishlatilsa, uning sinonimlari „kinoya“ – majoziy yo‘l orqali salbiy munosabatni bildirish uchun, „istehzo“ – pichingli ohangni ifodalash uchun ishlatiladi. Sinonimlar ham badiiy adabiyotda keng qo‘llaniladi:

Istasam davr ahlidin ishqingni pinhon aylamak,

*Kechalar goh **ingramakdur** odatim, goh **singramak**.*

(Alisher Navoiy)

O'zbek tilida antonimiya hodisasi

O'zbek tilshunosligida antonimlar ma'nosi bir-biriga zid, qarama-qarshi, inkor qiluvchi yoki farqli so'zlarning juft holatda kelishi hisoblanadi. Masalan, „*achchiq-shirin, och-to'q, issiq-sovuq*“ va boshqalar. Antonimlar ma'no jihatdan bir-biriga zid bo'lishidan qat'iy nazar, ular matn va nutq jarayonida ma'lum bir umumiylikni ifodalab keladi. O'zbek tilida antonimiya hodisasining quyidagi o'rganish obyektlari mavjud:

- Leksik antonimiya;
- Kontekstual antonimiya;
- Frazelogik antonimiya;
- Badiiy adabiyotda antonimiya hodisasi;
- Antonimik juftlik;
- Enantiosemiya;
- Antonimiya va polisemiya hodisalarining bog'liqligi;
- Antonimlarning belgilash me'zoni va boshqalar.

Leksik antonimiya leksik birliklar orasida sodir bo'ladigan antonimlar hisoblanadi. Leksik antonimlar, asosan, ma'lum bir so'z turkumi doirasida vujudga keladi: sifatlarda – „*baland-past*“; ravishlarda – „*arang-bemalol*“; otlarda – „*kuz-bahor*“; fe'llarda – „*kirmoq-chiqmoq*“ va boshqalar.

Kontekstual antonimiya. O'zbek tilida ma'lum bir so'zlarning matn ichida bir-biriga qarama-qarshi so'zlarga aylanishidir. Masalan,

Aytur so'zni ayt,

Aytmas so'zdan qayt!

(Alisher Navoiy)

Frazelogik antonimlar. Til doirasida ishlatiladigan ibora hamda frazeologik birliklarning ma'no jihatidan bir-biriga qarama-qarshi, zid ma'noda kelishi. O'zbek tili frazeologik birliklarga boy til hisoblanadi. Ular aksariyat hollarda badiiy hamda so'zlashuv nutqida qo'llaniladi. Masalan, „*holdan toymoq, sabr kosasi to'lmoq, tepa sochi tikka bo'lmoq, og'ziga talqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, avzoyi bejo, dili siyoh*“ va boshqalar.

O'zbek tilida frazeologizmlar semantik jihatdan turli ma'nolarda ishlatilishi mumkin. Frazeologik sinonimiya, antonimiya, omonimiya shular jumlasidandir.

Frazeologik sinonimiya. Frazeologik birliklarning ma'no jihatidan bir-biriga yaqin bo'lishi. Masalan, „*yer bilan yakson qilmoq – kulini ko'kka sovurmoq*“.

Frazeologik antonimiya. Frazeologik birliklar va iboralarning semantik jihatdan bir-biriga qarama-qarshi, zid ma'no ifodalashi. Masalan, „*ko'ngli joyiga tushdi – yuragiga g'ulg'ula tushdi; qoni qaynadi – og'zi qulog'iga yetdi; qo'lga olmoq – qo'ldan chiqarmoq; narxi osmonda – suv tekin; ko'kka ko'tarmoq – yerga urmo; yuragi toza – yuragida kiri bor; og'ziga talqon solmoq – og'ziga kelganini gapirmoq*“ va boshqalar.

Frazeologik omonimlar esa shakli bir xil qo'llanilish va semantik jihatdan turli xil bo'lgan frazeologik birliklardir. Masalan, „*so'z bermoq(va'da bermoq) – so'z bermoq(gapirishga ruxsat bermoq)*“.

Badiiy adabiyotda antonimiya hodisasi. O'zbek tilida antonimlar nafaqat so'zlashuv nutqida, balki badiiy adabiyotda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jumladan antonimiya hodisasi badiiy adabiyotda badiiy san'atlar talqinida namoyon bo'ladi. O'zbek adabiyotida badiiy san'atlar uch guruhga bo'linadi. Ular:

1. Lafziy san'atlar;
2. Ma'naviy san'atlar;
3. Ma'naviy va lafziy san'atlardir.

Lafziy san'atlar deb, she'riyatda misralar tarkibidagi tovushlarning shakliy jihatdan vujudga keladigan o'zgarishlari tushuniladi. Ular *tarsi'*, *saj'*, *mulamma'*, *mutobiqa(qaytarish)* va boshqa san'atlardan iborat.

Ma'naviy san'atlar. She'riyatda she'r g'oyasi bilan bog'liq bo'lgan, rang-barang ko'rinishdagi san'atlar ma'naviy san'atlar turkumiga mansub. Xususan, *tashbih*, *iyhom*, *ishtiyoq*, *lutf*, *tazod* va boshqalardir.

Manaviy va lafziy san'atlar. She'riyatda tovush shakli hamda ma'no-mazmundan namoyon bo'ladigan uzviy bog'liqlik ma'naviy va lafziy san'atlarda

o'z ifodasini topadi. Ular quyidagi san'atlarni o'z ichiga oladi: *tanosib*, *tajnis* va boshqalar.

Tazod

O'zbek badiiy adabiyotida antonimiya hodisasi ma'naviy san'atlardan biri bo'lmish tazod san'ati talqinida namoyon bo'ladi. Aksariyat shoirlar o'z she'rlarida zid ma'nodagi so'zlarni ishlatib, ma'noning kuchayishi, ta'sir doirasining oshishi kabi natijalarga erishadilar.

Tazod arabcha so'zdan olingan bo'lib, qarshilantirish degan ma'noni anglatadi. Ushbu san'at bir-biriga zid tushunchalarni ifoda etuvchi so'zlarni ma'lum bir estetik maqsadda bir-biriga bog'lab ishlatish usulidir.¹ Ba'zi badiiy adabiyotlarda tazod atamasi *Al-mutazod*, *mutobaqa*, *tiboq*, *takofu* talqinida ishlatiladi.

*Gahe toptim falakdin **notavonlig'**,*
*Gahe ko'rdim zamondin **kamronlig'**.*
*Base **issig'-sovuq** ko'rdum zamonda,*
*Base **achchiq-chuchuk** tottim jahonda.*

(Alisher Navoiy)

Ushbu she'riy misralarda „*notavonlig'* – *kamronlig'*, *issig'-sovuq*, *achchiq-chuchuk*“ so'zlari bir-biriga zid manolarni ifodalagan.

Antonimik juftlik. Antonimlarning ishlatilishida antonimik juftlik va juft so'zlar o'rtasida farqli jihatlar mavjud. Ya'ni, antonimik juftlik alohida-alohida leksemalar bo'lib, semantik jihatdan bir-biridan farqlanadi. Juft so'zlar esa o'z navbatida, birgalikda bir semantik munosabatga kirisha oladigan, umumlashgan bir uslubda ishlatiladigan so'zlardir. Masalan, „*baland* – *past*“ (baland bino va past bino); „*baland-past*“ (hayotning baland-pastligi, notekisligi, qiyinchiligi).

Enantiosemiya ma'lum bir bitta leksemaning matnda ma'no va mazmun jihatidan, nutqiy muhit talabiga binoan antonimiklik xususiyatini hosil qilishidir. Masalan, „*ofat*“ (falokat) – „*ofat*“ (go'zal, maftunkor).

¹Бобоев Т. Адабиетишунослик асослари. – Тошкент: Укитувчи, 2002. –Б. 354.

Antonimiya va polisemiya. Antonimiya hodisasi polisemantik ma'nodagi so'zlar o'rtasida ham kelib chiqishi mumkin. Ya'ni o'z ma'nosida ishlatiladigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lmagan so'zlar ko'chma ma'noda ma'no-mazmun talabiga binoan antonimiya hodisasiga uchrashi mumkin. Masalan, „*achchiq*“ va „*shirin*“ so'zlari o'z ma'nosida „*achchiq qalampir*“ va „*shirin olma*“ tarzida antonim hisoblansa, ko'chma ma'noda „*achchiq gap*“ va „*shirin gap*“ birikmalari ham antonimlik munosabatiga ega.

Antonimlarning belgilash me'zonlari. Antonimiya hodisasini tadqiq qilish jarayonida o'zbek tilidagi barcha so'zlarning antonimi bor deb hisoblash joiz emas, balki o'zbek tilida ko'pchilik so'zlarning antonim jufti mavjud emas. Tilshunos olimlardan B. Isabekov, R. Shukurov, Sh. Rahmatullayev va N. Mamatovlar shu borada turli xil fikrlarni bildirishgan. Ba'zi tilshunos olimlar „*opa-singil, aka-uka, bordi-bormadi, ayt-aytma*“ kabi so'zlarni antonimlar deb hisoblashsa, boshqa bir olimlar ularni rad etishgan. Ya'ni so'zlarda antonimlik nafaqat ziddlik, balki o'zaro qarama-qarshilik, mazmuniy nomuvofiqlik mavjudligini ta'kidlashgan.

Tilshunoslar antonimlarning belgilash mezonini aniqlash maqsadida **mantiqiy markaz** prinsipiga tayanishdi. Ya'ni so'zlarning antonimlik xususiyatini shakllantirishlari uchun oraliq tushuncha(mantiqiy markaz) mavjud bo'lishi shart. Masalan, „*qish*“ va „*yoz*“ so'zlari bir-biriga antonim tushunchalar bo'lib, ularning mantiqiy markazi „*kuz*“ yoki „*bahor*“ hisoblanadi. Ba'zi hollarda ma'lum bir so'zlarning darajalanishi natijasida mantiqiy markazning ikki tomonida bir nechtdan antonimlar ishlatilishi mumkin. Masalan, „*a'lo – yaxshi – o'rta*(mantiqiy markaz) – *yomon – juda yomon*“. Ba'zi bir antonimlarning mantiqiy markazi til doirasida mavjud emas, ammo oraliq tushuncha tasavvur natijasida namoyon bo'ladi. Masalan, „*kulgi – yig'i*“ ularning mantiqiy markazi nutqda ishlatilmaydigan insonning normal holati tushuniladi.

3.2. O'zbek va italyan tillarida antonimlarning umumiy va xususiy tahlili

Tilshunoslikda tillar struktural, semantik, funksional jihatlariga ko'ra bir-biriga o'xshash hamda bog'liq holda vujudga kelgan. Bunday mutanosibliklar va o'xshashliklar tillarning barcha sohalarida, o'rganish obyektlarida namoyon

bo'lishi mumkin. Jumladan, kishilarning aloqa vositasi hisoblanmish nutqning talaffuzi, uning grammatik stukturasi, ma'no-mazmuni, leksik, morfologik, sintaktik jihatlari tillarda turli holda bo'lib, ular o'rtasidagi farqli va o'xshash jihatlari tilshunoslar tomonidan tadbiq qilinadi. Masalan, *"I go to school everyday(ingliz tili), Io vado a scuola ogni giorno(italyan tili), Men har kuni maktabga boraman(o'zbek tili)"* va boshqa tillarda ushbu gap turlicha talqinlarda, turli xil grammatik, sintaktik strukturalarda namoyon bo'ladi.

Tadqiq qilinayotgan bitiruv malakaviy ishning ushbu rejasida tilshunoslikning leksikologiya bo'limiga mansub bo'lmish antonimlarning o'ziga xos xususiyatlari ikki til doirasi ya'ni italyan va o'zbek tillarida mavjud o'ziga xos xususiyatlari taqqoslanadi.

Antonimlar umumiy jihatdan oltoy tillar oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilida ham hamda lotin tillari oilasiga mansub bo'lgan italyan tilida ham bir xil mazmun-mohiyat kasb etib, bir xil vazifa va maqsadlarda qo'llaniladi. Umumiy jihatdan antonimlar ikki til doirasida ham qarama-qarshi, zid hamda bir-birini inkor etuvchi so'z, birikma, tushuncha sifatida ishlatiladi. Tillarning ishlatilishdagi o'ziga xos xususiyatlari, ushbu tilda so'zlashuvchi millatlarning etnik hamda milliy mentalitetidan kelib chiqqan holda antonimlarning farqli va o'xshash sifatleri namoyon bo'ladi. Shu jumladan, antonimlarning o'zbek hamda italyan tillaridagi farqli va o'xshash jihatlari quyidagi o'rganish obyektlarida namoyon bo'ladi:

Leksik antonimiya hodisasi ikki tilda ham mavjud bo'lib, har bir tilning lug'at boyligi leksik xususiyatlariga ko'ra kelib chiqadi.

O'zbek tilida leksik antonimlar asliy hamda yasama antonimlardan kelib chiqqan.

Masalan, *"katta – kichik"(asliy), "betartib – tartibli"(yasama)*

Italyan tilida ham antonimlarning bunday xususiyati mavjud bo'lib, italyan tilida asliy antonimlar – antonimi lessicale, yasama antonimlar esa antonimi grammaticale deb ataladi.

Masalan, *amore – odio(lessicale), fortunate – sfortunato(grammaticale)*

Kontekstual antonimiya hodisasi antonim bo'lmagan so'zlarning antonim bo'lish xususiyati bo'lib, ikki tilda ham ushbu jarayon namoyon bo'ladi.

Masalan,

*Aytur soʻzni **ayt**,*

*Aytmas soʻzdan **qayt**!*

(Alisher Navoiy)

Ushbu misralarda aslida bir-biriga antonim boʻlgan „*ayt*“ va „*qayt*“ soʻzlari zid maʼnolarda qoʻllanilgan.

Italyan tilida matnning mazmuniga koʻra „*monarchia*“ va „*reppublica*“ soʻzlari bir-biriga antonim boʻlishi mumkin.

Frazeologik antonimlar ikki tilda ham mavjud boʻlib, bunday antonimlar nafaqat leksik, grammatik xususiyatlari bilan balki frazeologik, semantik hamda tilning ijtimoiylashuvidagi oʻziga xos jihatlari bilan farqlanadi. Maʼlum bir tasviriy ifoda, frazeologik birikma, iboralarining kelib chiqishida mentalitet, etnik xususiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan, oʻzbek tilida „*koʻngli joyiga tushdi – yuragiga gʻulgʻula tushdi; qoni qaynadi – ogʻzi qulogʻiga yetdi*“ kabi iboralar bir-biriga antonim hisoblansa; italyan tilida „*nel cuore della citta`*“(shahar markazi) - „*fuore della citta`*“(shahar tashqarisi) „*con tutto il cuore*“(butun yuragi bilan) – *cosi`-cosi`*(shunchaki) iborolari oʻrtasida antonimlik xususiyatlari namoyon boʻladi.

Badiiy adabiyotda antnimiya hodisasi. Antonimiya hodisasi nafaqat oʻzbek hamda italyan adabiyotida balki, boshqa tillar adabiyotida ham muhim ahamiyatga ega. Oʻzbek badiiy adabiyotida antonimlik xususiyati badiiy sanʼatlardan biri boʻlmish tazod sanʼatida hamda antitezi talqinida namoyon boʻladi. Badiiy adabiyotda antonimiya hodisasi asosan sheʼriyatda maʼno-mazmun taʼsirchanligini oshirish maqsadida qoʻllaniladi.

Masalan,

*Gahe toptim falakdin **notavonligʻ**,*

*Gahe koʻrdim zamondin **kamronligʻ**.*

*Base **issigʻ-sovuvq** koʻrdum zamonda,*

*Base **achchiq-chuchuk** tottim jahonda.*

(Alisher Navoiy)

O'zbek adabiyotidan ma'lum darajada farqli ravishda italyan adabiyotida antonimiya hodisasi asosan nazmda qo'llanilib, badiiy tasviriy ifodalarda namoyon bo'ladi. Bunday tasviriy ifodalar quyidagilar: antitesi, antifrasi, ossimoro, climax. Masalan, „*Pace non trovo, e non ho da far guerra e temo, e spero, ed ardo e sono un ghiaccio*“ – tinchlikni topolmayman ammo urushishga sabab yo'q, qo'rqaman, o'ylab, otash bo'lib yonaman lekin aslida muzman.

Enantiosemiya. Bir leksemaning kontekst talabiga binoan antonim bo'lishi ikki tilga ham xos hodisa hisoblanib, bu hodisa nutq mazmunini boyitish uchun xizmat qiladi. Masalan, „ofat“ (falokat) – „ofat“ (go'zal, maftunkor); italyan tilida esa, „alta montagna“ – baland tog', „alto mare“ – chuqur dengiz“.

Antonimlarning belgilash me'zoni. Antonimlarning belgilash me'zoni turli tillarda turlicha ifodalanadi. Antonimlar ma'lum bir tilda faqat bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlarga nisbatan qo'llanilsa, ma'lum bir tilda bir-birini inkor etuvchi so'z va birikmalarga nisbatan ishlatiladi. Shu jumladan o'zbek va italyan tillarida ham antonimlar turlicha belgilanish xususiyatiga ega. O'zbek tilida tilshunos olimlar tomonidan antonimlarning belgilash me'zoni sifatida mantiqiy markaz tushunchasi qabul qilingan. Ya'ni so'z va birikmalarning antonimlik xususiyatida mantiqiy markaz standart, normal sifatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, „yaxshi“ va „yomon“ antonimlarning mantiqiy markazi „o'rta“ tushunchasi hisoblanadi. Mantiqiy markaz har doim ham yaqqol namoyon bo'lmaydi, balki u kishi ongi ostida vujudga keladi. Masalan, „kulgi“ va „yig'i“ antonimlarining o'rtasidagi mantiqiy markaz nutqda ifodalanmaydigan kishining kulmagan va yig'lamagan normal holati tushuniladi. Ba'zi tilshunos olimlar o'zbek tilidagi „ota-ona“, fe'llarning bo'lishsiz shakliga mansub „bordi-bormadi“ kabi antonim birliklarni antonim sifatida hisoblashmaydi. Ammo bunday ko'rinishdagi holatlar to'g'risida aniq xulosalar kelib chiqqani yo'q.

Antonimlarning belgilash me'zoni italyan tilida o'zbek tilidan ma'lum darajada farqli. Ya'ni italyan tilida antonimlar umumiy jihatdan uch guruhga bo'lib o'rganiladi. Ular *antonimi graduabili, complementari va inversi*.

Antonimi graduabili darajalanish xususiyatiga ega bo'lgan asosan sifat hamda ravish so'z turkumlariga oid bo'lgan antonimlar hisoblanadi. Masalan, *freddo – caldo, molto freddo – molto caldo*(juda sovuq – juda issiq).

Complementari italyan tilida darajalanish xususiyatiga ega bo'lmagan, balki mohiyatan bir-biriga antonim bo'lgan so'z va birikmalar tushuniladi. Masalan, *morto*(o'lik) – *vivo*(tirik).

Inversi kishi ongi orqali, ijimoiy hayot faoliyati natijasida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan tushuncha va ifodalarning antonim bo'lishidir. Masalan, *femmina*(ayol) – *maschio*(erkak), *fratello*(aka) – *sorella*(opa).

O'zbek va italyan tillaridagi o'xshash va farqli jihatlar asosan tarjimonlarning o'rganish sohasi hisoblanadi. Aynan tarjimonlar ma'lum bir asarni tarjima qilish jarayonida tillar o'rtasidagi mutanosibliklarga alohida e'tibor bilan yondashadi. Tarjimonning vazifasi bir tildagi asarni boshqa bir tilda grammatik, sintaktik jihatdan mos ravishda o'girishgina emas, balki tarjimon mazmun-mohiyatan mos keladigan, asarning asl maqsadini yoritib beradigan, asar yozilgan makon, zamon, qahramonlar ruhiyatini tushungan holda mukammal tarjima yaratishdir. Italyan tilidagi asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ham tarjimon tilda barcha xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyat olib boradi. Shu jumladan, antonimiya hodisasi tarjimon faoliyatining nozik jihatlaridan biri hisoblanadi. Tarjima faoliyatida tarjimon antonimlarning mazmunan mos, aynan ekvivalentini aniqlagan holda ishlatilishi lozim.

III bob bo'yicha xulosa

Tilshunoslikda tillar o'rtasidagi bog'liqlik, o'xshashlik va mutanosiblik tilshunoslar tomonidan tadbiq qilinib kelayotgan eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Kishilar aloqa vositalaridan bo'lmish o'zbek tili oltoy tillar oilasi, turkiy tillar tarmog'i, qarluq-uyg'ur tillar guruhiga mansub. Shu jumladan, italyan tili lotin tillar oilasi roman-german tillar tarmog'iga mansub. Ular bir-biridan farq qiluvchi boshqa-boshqa til oilalariga mansub bo'lishiga qaramay, ularning o'xshash jihatlarini farqli jihatlariga nisbatan kengroqdir.

Xususan, antonimiya hodisasi o'zbek va italyan tilida umumiy jihatdan bir xil tushuncha darajasida o'rganiladi. So'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda ular o'rtasidagi bog'liqlik keskin darajada farq qilmaydi. Tadqiq qilingan ish natijasida antonimlarning quyidagi jihatlarini o'rtasida bog'liqlik mavjudligi aniqlandi:

- Leksik antonimiya;
- Grammatik antonimiya;
- Frazologik antonimiya;
- Enantiosemiya;
- Antonimik juftlik;
- Badiiy adabiyotda antonimlarning roli;
- Antonimlarning belgilash me'zonlari va boshqalar.

Ikki til xususiyatlarining bir-biriga qiyoslanishi nafaqat tilshunos olimlarni, balki tarjimon olimlarning ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday soha tilshunoslikda **komparativistik lingvistika** yoki **komparativizm** deyiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, italyan va o'zbek tili ko'p jihatlaridan bir-biriga o'xshash tillar hisoblanadi. Tillar tadqiqi natijasida italyan tilini o'rganish qiyoslash metodiga asoslanib o'rganilsa ijobiy natijalarni namoyon etadi.

Xulosa

Ijtimoiy hayotda til davrlar o'zgarishi bilan doimo rivojlanib turadigan, kishilarning aloqa vositasi hisoblangan ochiq sistema hisoblanadi. Tilda sodir bo'ladigan o'zgarishlar natijasida til sistemasining ayrim birliklari eskirib iste'moldan chiqishi, yangi til birliklarining kirib kelishi, tilning semantik xususiyatida yangicha mazmun kasb etishi holatlari, ma'nolarning kengayishi yoki aksincha torayishi mumkin. Bunday o'zgarishlar tillarning kelib chiqishi, o'zgarishi, bir-biriga bo'lgan bog'liqligi kabi xususiyatlarini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu jumladan antonimiya hodisasi tilshunoslikda eng muhim hodisalardan biri bo'lib, tilning rang-barangligini, semantik ma'nolarning ta'sirchanligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Italyan tilida antonimiya hodisasining ishlatilishi borasida quyidagi xulosalar tasdiqlandi:

Birinchi bob. Tilshunoslikda antonimiya hodisasi va uning o'ziga xos xususiyatlari

Tilshunoslikda antonimiya hodisasi eng muhim obyektlardan biri sifatida o'rganiladi.

Tilshunoslikni tadqiq qilish jarayonida tadqiq qiluvchi tomonidan tilshunoslikka oid bo'lgan barcha atama va terminlarni o'rganib chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu jumladan tilshunoslikni tadqiq qilishda ko'plab o'rganish sohalari va bo'limlari mavjud. Ular quyidagilar:

- fonetika;
- leksikologiya;
- grammatika;
- morfologiya;
- sintaksis;
- frazeologiya;
- orfografiya;
- punktuatsiya;

- dialektologiya;
- etimologiya;
- artikulyatsiya;
- stilistika va boshqalar.

Ushbu bo'limlardan biri bo'lmish leksikologiya so'z va uning o'ziga xos jihatlarini o'rganadi. Shu jumladan, antonimiya hodisasi leksikologiyaning muhim o'rganish obyektlaridan biri bo'lib, so'zlar o'rtasidagi qarama-qarshi, bir-biriga zid bo'lgan munosabatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Tilshunoslikda so'zlar turli ma'no munosabatlarga ega. Sinonimlar, antonimlar, omonimlar, paronimlar, polisemantik so'zlar shular jumlasidandir. Yuqorida tadqiq qilingan ishning birinchi bobi umumiy tilshunoslikda antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlari, sifatlari, qo'llanilish jihatlarini hamda til doirasidagi ahamiyati o'rganildi. Antonimiya hodisasi nafaqat tilshunoslikning o'g'zaki nutqida balki badiiy adabiyotda, xalq og'zaki ijodida hamda tarjimashunoslikda muhim ahamiyatga ega.

Antonimik tarjima

Antonimik tarjima bu tarjima jarayonida keng qo'llaniladigan kompleks leksik-grammatik almashtiruvdir. Bunda tasdiq grammatik konstruktsiya inkor grammatik konstruktsiyaga, yoki aksincha, inkor konstruktsiya tasdiq konstruktsiyaga almashtiriladi. Shu bilan birga asl matndagi biror so'z tarjima tilida uning antonimiga almashtiriladi (odatda „antonim“ so'zi bir tilning so'zlariga nisbatan qo'llaniladi; bu yerda „antonim“ so'zini ikki tilning – asl matn tili va tarjima tilining ma'nolari qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni ifodalash uchun qo'llanilgan).

Ikkinchi bob. Italyan tilida antonimlarning yasalihi va qo'llanishi

Bitiruv malakaviy ishning ikkinchi bobida cheet tillaridan biri bo'lmish italyan tilida antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlari, ishlatilishi va ahamiyati o'rganildi. Boshqa tillar qatorida italyan tilida ham antonim so'zlarlarning asliy hamda ma'lum bir so'z turkumlardan kelib chiqqan guruhlari mavjud. Italyan tilida antonimlar so'zlar o'rtasida, iboralar o'rtasida, badiiy

tasviriyl vositalar talqinida namoyon bo'lishi mumkin. Antonimiya hodisasining qo'llanilishi badiiy adabiyotda mashhur italyan adiblarining asarlarida o'z aksini topgan. Shu jumladan Alessandro Baricco, Niccolo Ammaniti, Bocaccio, Dante asarlaridir.

Antonimia

Ma'lum bir matnda yoki kontekstda so'zlar bir-biri bilan ma'no va mazmun jihatdan munosabatga kirishadi. Italian tilida bir-biriga qarama-qarshi hamda bir-birini rad etuvchi so'zlar „**contrari**“ yoki „**opposti**“ (qarama-qarshi so'zlar) deb ataladi. Masalan, „*alto – basso, brutto – bello, facile – difficile*“ va boshqalar.

Umumiy jihatda bunday qarama- qarshi so'zlar uch turga bo'linadi:

1. Antonimia;
2. Complementarita`;
3. Inversione.

Italian tilida frazeologik birliklar o'rtasida ham antonimik munosabat mavjud bo'lib, italyanlar madaniyati, xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan ibora va tasviriyl ifodalar bir-biriga qarama-qarshi ma'nolarda qo'llaniladi:

- „*abbaiare alla luna*“(befoyda ish bilan shug'ullanmoq) – „*fare le cose utile*“(foydali ish qilmoq);
- „*avere la luna*“(jahli chiqmoq) – „*tranquillizare*“(tinchlamoq);
- „*avere fegato*“(qo'rqmas, dovyurak, kuchli bo'lmoq) – „*avere paura*“(qo'rqmoq);
- „*alla carlona*“(e'tiborsiz) – „*con attenzione*“(e'tiborli);

Italian adabiyotida badiiy tasviriyl vositalar ishlatilish mohiyatiga ko'ra to'rt guruhga bo'linadi:

1. Figure retoriche di parola;
2. Figure retoriche di pensiero;
3. Figure retoriche di sintassi;
4. Figure retoriche di ritmo.

Italian tilida antonimlar so'zalarni hosil qilishda quyidagi vositalar muhim ahamiyatga ega:

In – **in**+**M/P/B**=**Im**; **In**+**L**=**Il**; **In**+**R**=**Ir** – utile-inutile, mangiabile-immangiabile, legale-illegale, regole-irregole, dipendenza-indipendenza, potenza-impotenza, logocita`-illogicit`, responsabilita`-irresponsabilita`;

S – contento-scontento, favorevole-sfavorevole, cortesia-scortesia, fortuna-sfortuna, montare-smontare, caricare-scaricare;

Dis – armante-disarmante, ordinato-disordinato, attenzione-disattenzione, aggio-disaggio, fare-disfare, approvare-disapprovare;

De – geminabile-degeminabile, cifrazione-decifrazione, duzione-deduzione, cordificare-decordificare, colorare-decolorare;

Senza – tetto-senzatetto, dio-senzadio;

Italyan badiiy adabiyotida antonimlarning ahamiyati

Antonimiya hodisasi italyan badiiy adabiyotida badiiy san'atlar talqinida namoyon bo'ladi. Badiiy asarlarda zid ma'noli so'zlar mazmun-mohiyat ma'lum bir maqsadlarga ko'ra qo'llaniladi. Italyan adabiyotida ular asosan fikrni ifodalovchi tasviriy vositalarda qo'llanilib gaplarning emotsionallik xususiyatini oshiradi. Kitobxon asarni o'qish jarayonida antonimik ifodalar ta'sirida obrazlarni ruhan his qiladi, shaxsan asar qahramoni sifatida obrazlar tarkibida ishtirok etadi. Italyan adabiyotida antonimik tasviriy vositalar quyidagilar:

- Antifrase;
- Antitesi;
- Ossimoro;
- Climax.

Uchinchi bob. Italyan va o'zbek tillarida antonimiya hodisasining o'zaro farqli va o'xshash jihatlari

Bitiruv malakaviy ishning uchinchi bobi italyan tilida va o'zbek tilida antonimiya hodisasining xususiyatlari taqqoslanib o'rganilishiga bag'ishlangan. Italyan tilida hamda o'zbek tilida antonimiya hodisasining qo'llanilishi o'rtasida umumiy bog'liqliklar mavjud.

Xususan, antonimiya hodisasi o'zbek va italyan tilida umumiy jihatdan bir xil tushuncha darajasida o'rganiladi. So'zlashuv nutqida va badiiy adabiyotda ular

o'rtasidagi bog'liqlik keskin darajada farq qilmaydi. Tadqiq qilingan ish natijasida antonimlarning quyidagi jihatlari o'rtasida bog'liqlik mavjudligi aniqlandi:

- Leksik antonimiya;
- Grammatik antonimiya;
- Frazologik antonimiya;
- Enantiosemiya;
- Antonimik juftlik;
- Badiiy adabiyotda antonimlarning roli;
- Antonimlarning belgilash me'zonlari va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, ayni paytda antonimiya hodisasi butun dunyo tilshunoslari tomonidan tadqiq qilinayotgan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Tilshunoslar antonim so'zlarning belgilash me'zonlari borasida hali aniq xulosalarni qabul qilishgan emas.

Tadqiq qilingan bitiruv malakaviy ishning maqsadi amalga oshirildi. Italian tilida antonimiya hodisasining o'ziga xos xususiyatlari, sifatlari, qo'llanilish jihatlari hamda til doirasidagi ijtimoiylik ahamiyati yoritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. - Toshkent: 1997.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent: 1997.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori. "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida". – Toshkent: 2012.10-dekabr.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. - Toshkent: O'zbekiston, 1996. –B. 382.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. –B.382.
6. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B.64.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. - Toshkent: Sharq, 1999. –B.182.
8. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - Toshkent: O'zbekiston, 1999. –B.413.
9. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. - Toshkent: O'zbekiston, 2003. –B.359.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. –B.173.
11. Абдурахмонов Г. Мамажонов С. Узбек тили ва адабиети. –Т: Узбекистон. 2002. –Б. 77-81.
12. Бобоев Т. Адабиетшунослик асослари. – Тошкент: Укитувчи, 2002. –Б. 354.
13. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Укитувчи, 1992. –Б. 90-115.
14. Исабеков В. О. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. – Т: АКД. 1973.
15. Уринбоев Б. Хозирги узбек сузлашув нутки(фонетика, интонация, лексика ва фразеология). – Самарканд: 2006. –Б. 90-92.

16. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Talqin, 2005. –B. 170-175.
17. Mirzayev I. Boltayev M. O'zbek tili. –Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 2004. –B. 38.
18. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2007. –B. 52-53.
19. Rasulov R. Mirazizov A. O'zbek tili. – Toshkent: Aloqachi, 2005. –B. 33.
20. Sayfullayeva R. Mengliyev B. Boqiyev G. Qurbonova M. Yunusova Z. Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: 2009. –B. 83-90.
21. Yo'ldoshev I. Sharipov O'. Tilshunoslik asoslari. – Toshkent: Iqtisod-Moliya. 2007. –B. 83-102.
22. Choriyev T. Safarova N. Istamova Sh. O'zbek tili. –Toshkent: Iqtisod-Moliya. 2008. 52-63.
23. Xudoyberdiyev. E .Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Iqtisod-Moliya 2007 yil 22 bet
24. Ambroso S. Stefancich G. Parole 10 percorsi nel lessico italiano. – Roma: Bonacci editore. 2002. –P. 12-22.
25. Dachille P. Sintassi del parlato e tradizione scritta della lingua italiana. – Roma: Edizione. 1990. –P. 388.
26. Dardano M. Trifone P. Grammatica italiana con nozioni di linguistica. – Bologna: Zanichelli editore S.P.A.1995. -P.153-154.
27. Chiuchiu A. Minccirelli F. Silvestrino M. L'italiano e l'Italia. – Perugia: 2009. –P. 323.
28. Katerinov K. Titone R. Quaderni di metodologia dell'insegnamento dell'italiano a stranieri. – Roma: Edizione Guerra, 1980.
29. Katerinov K. Rassegna dei principali metodi per l'insegnamento delle lingue straniere. – Milano: Edizione Guerra, 1984.
30. Manella C. Pallante C. Guida ai verbi Italiani. – Firenze: Progetto Lingua Edizioni. 2006. –P. 128.
31. Samburg M. Strutture dell'italiano. – Verona: Fides. 1990. –P.639.
32. Serianni L. Castelvechi A. Grammatica italiana. – Torino: 1991. –P.750.

33. Straniero R. Fondamentale della lingua italiana per stranieri. 1991
34. Silvesyrini M. Ciliberto C. Ferretti M. Filippucci L. Dai Prova. – Peruggia: Guerra edizione. 2007. –P. 360.
35. Азизов А. Русско – Узбекский краткий словарь. – Ташкент: Укитувчи. 1988. –Б. 580.
36. Зорко Г. Ф. Итальянско-русский Русско-итальянский словарь. Italiano-Russo Russo- Italiano dizionarioю - Москва: АСТ. Астрель. Хранитель, 2007. – С. 733.
37. Aliqulov T. Ruscha – O‘zbekcha o‘quv lug‘ati – Moskva: Rus tili nashriyoti. 1982. –B. 286.
38. Rahmatullayev Sh. Mamatov N. Shukurov R. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. - Toshkent: O‘qituvchi, 1980
39. Aceti L. Dizionario sinonimi e Contrari. - Romagna: Rusconi Libri s.r.l. Santarcangelo (RN), 2007. –P. 480.
40. Usmonov s. Antonimlar - O‘zbek tili va adabiyoti masalalari – jurnali. – Toshkent: 1958 2-son. –B. 38
41. www.uzedu.uz sayti
42. www.ziyonet.uz “ZiyoNET” jamoat ta’lim axborot portal
43. <http://ziyonet.uz/uzc/library/book/42381/libid>
44. <http://fikir.uz/blog/14056.html>